

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM
VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TARIX fakulteti

“O'ZBEKISTON TARIXI” kafedrası

BOLTAYEV SHOXRUX

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: SOVETLAR HUKMRONLIGI YILLARIDA
O'ZBEKISTONDA MILLIY MAKTABLAR TIZIMI**

Ilmiy rahbar: **t f.n. X.QURBONOV**

Navoiy 2014

REJA

KIRISH

1.ESKI MAKTABLARNING ISLOH QILINISHI

2.MILLIY MAKTABLARNING TUGATILISHI

3.MADRASALARNING ISLOH QILINISHI VA ULARNING FAOLIYATI

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi respublikada demokratik va insonparvar jamiyat qurishga, bo-zor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan jamiyat negizlari-ni yaratishga keng yo'l ochib berdi. Mustaqillik sharofati bilan o'zbek xalqining o'tmish tarixi, ma'naviy qadriyatlari, qadimiy madaniyati tiklana boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zbek xalqining istiqlol yillarida qayta uyg'onayotgan milliy ma'-naviyati va ma'rifatiga to'xtalib, jumladan, quyidagilarni ta'kidlab o'tgan edi: "Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch - ma'rifatdir. Asrimiz boshida Turkistonda kechgan voqealarni bir eslang. Nega bu o'lkada o'sha yillari ma'rifatchilik harakati har qachongidan ham kuchayib ketdi? Negaki, chor Rossiyasi asoratiga tu-shib qolib, butkul tanazzulga yuz tutgan o'lkani uyg'otishga, xalqning ko'zini ochishga faqat ma'rifat orqaligina erishish mumkin edi"¹

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda, haqli tarzda ta'kidlash joizki, aynan mustaqillik davriga kelib o'zbek xalqi ma'rifatining taraqqiyoti va ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Qadimdan o'ziga xos madaniyat rivojlangan, shaharsozlik ma-daniyati taraqqiy etgan, ko'p sonli maktab va madrasalarga ega bo'lgan Turkistonda o'ziga xos ta'lim tizimi mavjud edi. Sovet hokimiyati o'rnatilgach, O'zbekistonda faoliyat olib borgan milliy maktab va madrasalar soni yildan-yilga qisqarib bordi.

Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olganidan so'ng o'lka hayotining barcha sohalarida mustamlakachilik tartibini o'rnat-di. Jumladan, mustamlakachi ma'muriyat o'lkada mavjud bo'lgan madrasa va mahalliy diniy maktablar faoliyatini cheklab, ular ustidan doimiy nazorat yuritish siyosatini olib bordi. O'lkada faoliyat yuritgan barcha general-gubernatorlar mahal-liy aholi ijtimoiy-ma'naviy turmush tarzini ruslashtirish siyosatiga urg'u berdilar. Ruslashtirish

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: Sharq, 2008.

siyosati ta'lim soha-siga ham taalluqli edi, albatta. Biroq fevral inqilobi o'lka ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotining barcha sohalarida ma'lum o'zgarishlar boshlanishiga turtki berdi. Inqilobdan so'ng madrasa, eski maktablar ham o'zlarining erkin faoliyatini olib bordilar. O'lkadagi madrasa, maktablar soni oshib bordi, biroq oktyabr to'ntarishidan so'ng hokimiyat tepasiga kelgan bol-sheviklar madrasa va maktablar faoliyatini cheklash siyosati-ni yuritdi.¹

Sovet hokimiyati o'rnatilgach, milliy maktab va madrasalar-ning vaqf mulklarini ekspropriatsuya qilish maqsadida doimiy ravishda kurash olib borildi. Jumladan, RSFSR hukumatining "Er to'g'risida"gi dekretiga asosan barcha yerlar, xususan, vaqf yerlari ham davlat mulkiga aylantirildi. RSFSR XKS tomdni-dan chiqarilgan "CHerkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to'g'risida"gi dekretga asosan milliy maorif maskan-larida diniy fanlarning o'qitilishi cheklab qo'yildi. Dekret chiqarilgandan keyin maktab, madrasalar va ulardagi o'quvchi-lar soni ham keskin kamaydi. Vaqf mulklarining ekspropria-siya qilinishi, maktab va madrasalar faoliyatining cheklab qo'yilishi mahalliy aholining jiddiy noroziligiga sabab bo'ldi.

¹ Komilov O. O'zbekiston ta'limidagi o'zgarishlar (XX asr boshlari). T.: Akademnashr, 2010. 121-bet.

1. ESKI MAKTABLARNING ISLOH QILINISHI

Turkistonda, keyinroq tashkil etilgan O'zbekistonda XX asrning 20-yillariga kelib eski usul maktablarining faoliyati davom etdi. Asriy an'analarga ega bo'lgan ushbu maktablar mahalliy aholining xatsavodini chiqarish yo'lidagi asosiy bo'g'in hisoblangan. SHubhasiz, diniy e'tiqod va qadriyatlar kuchli bo'lgan musulmon Turkistonida aholi sovetlar targ'ibotiga qaramay, o'z farzandlarining diniy maktablarda tahsil olishiga katta e'tibor berar edi. SHubois ham sovetlar bu maktablarni sovetlashtirishga oid siyosatni avj oldirdi. Eski maktab-larni tezroq tugatish masalasi sovet ma'murlarining doimiy diqqat markazida bo'ldi. 20-yillarning boshlaridan bu mak-tablarni isloh qilish niqobi ostida ularni sovetlashtirishga alohida e'tibor qaratila boshladi.

1922 yil 20 iyunda Turkiston MIQning "Turkiston Respub-likasi madrasa va masjidlariga vaqflarni qaytarish haqida"gi dekretiga asosan eski maktablarga tegishli vaqflar qaytarib berildi.

Biroq Turkiston KPning 1922 yil 16-21 oktyabrda bo'lib o'tgan VII konferensiyasi sovet makta-bi oldiga eski maktab-larga nisbatan yuqori mavqega ega bo'lish vazifasini qo'ydi. Ushbu vazifani bajarish uchun sovet maktablari har jihatdan qo'llab-quvvatlanib, yaqin yillar ichida eski maktablar har qanday moddiy yordamdan mahrum qilinishi ko'zda tutildi.¹

1922 yilning 22 oktyabrida Turkiston ASSR MIQ "Maktab-larga diniy bilimlarni o'qitish huquqini berish haqida" qaror qabul qildi, biroq bu qaror izchillik bilan amalga oshirilma-di. Butun ittifoq MIQ Prezidiumining yig'ilishida Turkiston Respublikasi MIQning sovet maktablariga diniy bilimlar o'qitish huquqini beruvchi qarori bekor qilindi. Istisno tari-qasida va vaqtinchalik chora sifatida Turkistonning o'zbeklar ko'pchilik, jam bo'lib yashaydigan qismidagi eski maktablarda-gina diniy bilimlar o'qytish man etilmadi.

1922 yil 20 iyundagi vaqflarni qaytarish to'g'risidagi dekretni qayta ko'rib

¹ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi (3-kitob). T.: Sharq, 2010.

chiqish ishi yuzasidan Turkiston KP Markaziy Qo'mitasi nazorat komissiyasini tuzdi. Unga U.Eshonxo'jayev rahbarlik qildi. Bu komissiya 1922 yil 11 noyabrda quyidagi takliflarni kiritdi:

- masjidlarga, qorixona, mozorlarga tegishli vaqf yerlari yana shu muassasalarga qaytariladi. Vaqflarning xarajati joylardagi vaqf bo'limlari tomonidan nazorat qilinadi;

- daromadlarni to'g'ri, teng taqsimlash ishlari vaqf organlari tomonidan amalga oshiriladi. Dastlabki ta'minot ishlari yangi madrasa, sovet maktablarida amalga oshirilishi lozim.

Turkiston KP MQ qaroridan ko'rinib turibdiki, Turkiston KP MQ Turkiston MIQga, birinchidan, vaqf mulklaridan tushayotgan daromaddan foydalanish tartibini o'zgartirishni, ikkinchidan, vaqflar boshqaruvini o'zgartirish va vaqf organlarini tuzish, uchinchidan, eski maktablarni isloh qilish takliflarini kiritdi. Vaqflar, madaniy muassasalardan tushayotgan daromadlar isloh qilingan maktablar hamda sovet maktablariga tushishi kerak edi.

Turkiston Respublikasi MIQ Soveti 1922 yil 28 dekabrda "Vaqflar to'g'risida" yangi 173-sonli dekretni qabul qildi. Unga ko'ra, oktyabr to'ntarishiga qadar vaqflarga tegishli bo'lgan mulklar, masjidlar, hojixona, qorixona, mozorlar, shuningdek, xyyriya va madaniy-ma'rifiy muassasalar (madrasalar, mak-tablar, yetimxona yoa boshqalar) tegishli muassasalarga foydalanishga beriladi.

Vaqflarni boshqarish tartibiga tegishli o'zgartirishlar kiritildi. YAngi dekretga asosan vaqf tashkilotlari Bosh vaqf boshqarmasi tomonidan boshqariladigan bo'ldi. Masjid, madrasa va boshqa diniy tashkilotlar vaqf mulklarini mutavallilar boshqaradigan bo'ldi. Madrasa, maktab va yetimxona hamda boshqa diniy xayriya muassasalari uchun mutavallilar vaqf bo'limi tomonidan saylanar, masjid va boshqa diniy muassasa mutavallilari muassasa joylashgan mahalla fuqarolari tomonidan saylangan. Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Sove-ti 1923 yil 4 martda Turkiston MIQning 1922 yil 28 dekabr-da qabul qilgan dekretini amalga oshirish yo'llari va tartiblari to'g'risidagi "Nizom"ni tasdiqladi.

"Nizom"ga ko'ra, Bosh vaqf boshqarmasi tashkiliy-axborot, akademik va moliya-xo'jalik bo'limlaridan iborat bo'ldi. Akademik bo'lim madrasa, maktab, qorixonalarni boshqarib, eski maktablarni isloh qilish bilan shug'ullanardi. "Nizom" asosi-da akademik bo'lim oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi: "a) eski usuldagi maktablarni, madrasalarni isloh qilish, yangi zamo-naviy talablarga javob beradigan choralarni tatbiq etish; b) yangi dastur loyihalari, ularga asoslanib yangi o'quv adabiyot-larini nashr qilish choralari ishlab chiqish; v) Maorif xalq komissarligi va Ijtimoiy tarbiya bosh boshqarmasi bilan ham-korlikda yangi dastur talablariga javob beruvchi o'qituvchilarni tayyorlash; g) mulla, xatib, qozi, muftiylarni inqilobiy ruhda kamolotga yetkazish; d) mutaassiblik va boshqa mayda eskilik sarqitlariga asoslangan madaniy qatlamlarga qarshi jurnallar nashr etish; ye) o'quv-tarbiyaviy tavsifga ega bo'lgan va hayotga tatbiq qilinayotgan tadbirlar Maorif xalq komissarligi mas'ul bo'limlari bilan kelishilgan holda o'tkaziladi".

Uyezd-shahar vaqf bo'limlari uchta kichik bo'limlarga ajratilgan: diniy vaqflar, tashkiliy-axborot, moliyaviy-xo'jalik. Diniy vaqflar - masjid, mozor, qorixonalar vaqflaridan tushayotgan daromadlarni madrasa va maktablarni isloh qilish, ta'mirlash, yangi usul maktablari qurilishi uchun sarflashga yo'naltiradigan bo'lim edi. "Nizom"da: "agar madrasa Bosh vaqf boshqarmasi dasturini qabul qilmasa, vaqf manbalaridan foydalanmaydi", - deb ko'rsatilgan edi¹.

Tashkiliy axborot bo'limi o'z oldiga ko'pgina vazifalar bilan bir qatorda "eski maktab, madrasalarni Bosh vaqf boshqar-masi ko'rsatmalariga asosan isloh qilish; j) isloh qilingan yangi usul maktab va madrasalarga o'qituvchilar, mudarris-larni tayinlash; z) xalq ta'limi bo'limi bilan hamkorlikda o'qituv-chi, mudarrislar uchun zamonaviy o'quv kurslarini tashkil etish; i) Maorif xalq komissarligi tasarrufidan bevosita olingan mahalliy aholiga tegishli bo'lgan maktablarni qayta tiklash" kabi vazifalarni qo'ygan edi.

SHunday qilib, Bosh vaqf boshqarmasi va uning mahalliy organlari vaqf masalalarini muhokama qilish, yangi usul mak-tablari, madrasa va maktablarni

¹ Komilov O. O'zbekiston ta'limidagi o'zgarishlar (XX asr boshlari). T.: Akademnashr, 2010. 122-bet.

isloh etish, qurish va ta'mirlashni moliyalash, aholi o'rtasida madaniy, ta'lim ishlari yuritishni tashkillashtirish vazifalarini amalga oshira boshladilar. Ayniqsa, ta'lim-tarbiya, pedagogik ishlarni tashkil etish, rahbarlik qilish masalalarini yechish zarur edi.

Bosh vaqf boshqarmasi raisi etib M.Oxunov, akademik bo'lim boshlig'i etib diniy masalalar bo'yicha yetakchi, vaqf masalalarini yaxshi tushungan Munavvar Qori Abdurashidxonov tayinlandi. Joylarda bir qator vaqf bo'limlari tashkil etildi. Vaqf organlarining dastlabki vazifalaridan biri eski usul mak-tablarini isloh etish bo'lib, bu vazifani amalga oshirish uchun akademik bo'lim eski maktablarni isloh qilish dasturini ishlab chiqishi lozim edi.

Turkiston ASSR MIQ Prezidiumining 1923 yil 18 yanvar-dagi majlisida Turk MIQning yangi, usul maktablarini asta-sekinlik bilan egallash, eski usuldagi maktablarni qisman bo'lsa ham isloh qilib, xalq maorifi bo'limlari faoliyati doirasiga jalb qilish yo'liga o'tilishi to'g'ri yo'nalish deb e'ti-rof etildi. Bu majlisda "Maorif haftasi" (Maktabni mus-tahkamlash haftasi) haqidagi masala ham muhokama qilindi. Maorif haftasini tashkil etish bo'yicha Markaziy Komissiya rioya qilishi lozim bo'lgan "Nizom"da sovet maktabini bitirganlar boshqa maktablarni bitirganlarga nisbatan davlat xizmatiga o'tishda hamda o'rta va oliy o'quv yurtlariga kirishda afzallik-larga ega ekanligi, sovet maktabi o'quvchilari mahalliy soliq-lardan ozod qilinganligini tushuntirish ishlarini olib borish ko'rsatilgan edi.

Ushbu hujjatda eski maktablarni isloh qilish ishiga katta e'tibor qaratildi. YUqorida aytib o'tilganidek, madrasa va maktablarni isloh qilish kerakligi haqida 1920 yilda, "Vaqf-lar to'g'risida"gi dekretidan avvalroq Munavvar Qori Abdurashidxonov so'z yuritgan edi. "Nima uchun madrasa va maktablar-ni isloh qilish kerak bo'lib qoldi?" degan savolga Munavvar Qori quyidagicha javob berdi. O'rta asrlarda Turkiston mak-tablari va madrasalarida arab tili, mantiq, geografiya, astronomiya, matematika, tabiiy fanlar o'qitilar, shariat, islom darslari o'rgatilardi. Bunday maktab va madrasalarda buyuk olimlar, faylasuflar, professorlar yetishib

chiqqandi. "Samarqanddagi Ulug'bek tomonidan barpo qilingan katta rasadxona o'sha davrda fan, ilm-madaniyatning yuqori cho'qqilarda bo'lganligini isbotlaydi", - deb ta'kidlaydi Munavvar Qori.¹

1923 yil 12 fevralda Toshkent shahar Mahkamai SHar'iya va Vaqf bo'limi idoralarining majlisi bo'lib o'tdi. Unda Turkis-ton Respublikasi MIQning "Maorif haftasi" munosabati bi-lan 1923 yil 18 yanvarda chiqargan 5-sonli qarori hamda Eski shahar ijroiya qo'mitasining 1 fevraldagi qaroriga binoan eski maktab va qorixonalarni isloh qilish to'g'ridan-to'g'ri Eski shahar maorif bo'limiga yuklatildi. Eski shahar ijroiya qo'mitasi tomonidan chiqarilgan mazkur qarorda talabalarga "Qur'on"ning "tajvid" bilan o'qitilishiga katta e'tibor berilgan.

Rossiya imperiyasi va uning bevosita merosxo'ri bo'lmish qizil imperiya davrida yangi madrasa, maktablarni ta'mirlash, ochish taqiqlangandi. Madrasa va maktablarda faqat diniy bilim-lar o'rgatilar, boshqa fanlar o'qitilmasdi. Munavvar Qori bun-day siyosatga qarshi chiqib, madrasa va maktablarda faqat diniy bilimlarning o'qitilishi noto'g'riligini ta'kidlagan, ularda umumta'lim fanlarini joriy etish dasturlarini ishlab chi-qishni taklif qilgan. U eski maktablarni yangi usul maktabla-riga aylantirish g'oyasini ilgari surdi. 1923 yilda akademik bo'lim boshlig'i Munavvar Qori Abdurashidxonov maktab, madrasalarni isloh qilish dasturlarini ishlab chiqishga kirishdi. Bu boradagi amaliyot asosli, aniq islohotlarni talab etardi. Arxiv hujjatlari shundan darak beradiki, 1923 yilning birinchi yarmidayoq isloh qilish dasturi tayyorlangay va amalga oshirila boshlangan. Yangi dastur asosida "Toshkent vaqf bo'limida 5 ta madrasa, 6 ta maktab qolgan. Samarqand vaqf bo'li-mida esa 14 ta maktab va unda 440 o'quvchi, Xo'jandda - 32 ta o'rta maktab va 1280 o'quvchi, Kattaqo'rg'onda - 3 maktab, 110 o'quvchi ro'yxatga olingan. Bu davrda yangi usuldagi maktablar soni 60 ta, ulardagi o'quvchilar soni 2580 tani tashkil qilgan".

Andijon vaqf bo'limining Bosh vaqf boshqarmasiga 1923 yil 16 oktyabrda qilgan ma'ruzasida vaqf bo'limi 19 mayda tashkil qilinganligi va uning raisi etib

¹ Alimov I. O'zbekistonda vaqf mulklarini tugatilishi tarixi. Andijon, 2009.

Qori Boda saylangani haqida ma'lumotlar beriladi. 1923 yil 4 sentyabrda bu yerda 4 ta maktab qayta tashkil qilindi.

Eski maktablarni isloh qilish dasturi Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligining arxiv fondida saqlangan. Bu hujjat "Diniy maktablarni (maktab va madrasalarni) qayta tashkil etishning qisqa loyihasi va shu maktablarning 1923-1924 o'quv yili uchun dasturi" deb ataladi. Hujjatni Bosh vaqf boshqarmasi raisi o'rinbosari YU.Aliyev, akademik bo'limi boshlig'i M.Abdurashidxonov imzolagandilar. Dastur Munavvar Qori Abdurashidxonov tomonidan tuzilgan bo'lib, asosan, ikkita bo'limdan iborat. Birinchi bo'lim "Maktablar islohoti", ikkinchisi "Madrasalar islohoti" deb nomlangan.

Maktablarni qayta tashkil qilishyng nozik tomonlari ham mavjud bo'lib, ehtiyotkorlikni talab qilar, aks holda, yangi usuldagi maktablarga aholi ishonchsizligi, noroziligi paydo bo'li-shi mumkin edi. Islohotlar dastlab Toshkent Eski shahar vaqf bo'limi tomonidan amalga oshirildi. Bosh vaqf boshqarmasi-ning 1923 yil 1 apreldagi ma'lumotlariga ko'ra, Toshkentda 15 ta dastlabki maktab, 4 ta qayta tuzilgan madrasa bo'lgan. Bosh vaqf boshqarmasining ta'kidlashicha, Toshkent Eski shahar vaqf bo'limi tasarrufidagi barcha o'quv muassasalariga sovet maktabi dasturi kiritilgan, qayta tashkil qilingan maktablarda diniy fanlarning o'qitilishi taqiqlab qo'yilgan. Tabiiyki, bu mahalliy xalq noroziligining yangidan paydo bo'lishiga olib kelar edi. O'z navbatida, vaqf bo'limi mudarrislar va ot-onalar fikri bilan qiziqmadi. Bosh vaqf boshqarmasi xo-dimlari bu noto'g'ri fikrni qo'llab-quvvatladilar. Bosh vaqf boshqarmasi raisi M.Oxunov 1924 yil 12 apreldagi Turkiston Respublikasi Maorif xalq komissarligining yig'ilishida so'zlagan nutqida bu xususda shunday degandi: "Qayta tashkil qilingan maktab va madrasalarda yangi dastur asosida diniy fanlar o'rniga umumta'lim fanlari o'rgatila boshlandi. Bu dastur vaqtli bo'lib, Toshkent Eski shaharidagi barcha maktablar sovet dasturi asosida faoliyat yuritmoqdalar. Boshqa vaqf organlaridan

mavjud dasturni sovet dasturiga almashtirish haqida talab kelib tushmadi".¹

Bosh vaqf boshqarmasi raisi M.Oxunov noto'g'ri yo'l tutib, yangi usul maktablariga unchalik e'tibor qaratmadi. U, asosan, sovet maktablarini qo'llab-quvvatladi. Boshqa shaharlarda va viloyatlarda eski maktablarni isloh qilish Bosh vaqf boshqarmasi akademik bo'limi tomonidan dastur asosida olib borildi. Mahalliy vaqf organlari maktablar islohotini amalga oshirish borasida 1923-1924 o'quv yilida ko'plab ishlarni amalga oshirdilar. Turkistonda amalga oshirilgan eski maktablar islohotini jadval orqali ham ko'rish mumkin.

1923 yil 1 sentyabrda Turkiston ASSRda isloh qilingan eski maktablar soni

Hudud	Jami ro'yxatga olingan maktablar	Qayta tashkil qilingan maktablar	O'quvchilar soni	Amalda o'qiydiganlar soni
Sirdaryo viloyati	112	6	550	550
Samarqand viloyati	45	13	810	665
Farg'ona viloyati	57	10	570	460
Jami	224	29	1930	1675

Qayta tiklangan, yangidan tashkil bo'lgan, ro'yxatga olingan eski maktablar soni jadvalda taxminiy berilgan, shuning uchun maktablar soni unchalik aniq emas. Aslida, respublikada ularning soni ancha ko'p bo'lgan. Qayta tiklangan 29 ta maktab isloh qilishga tayyorlangan bo'lishi mumkin 1923 - 1924 yillarda esa yangi usuldagi madrasalar ancha kamayib; ketgan bo'lishi haqiqatga yaqinroq.

Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlari bo'yicha statistika ma'lumotlariga qaraganda, 1917 yilda 1500 ga yaqin maktab va qorixonalar mavjud bo'lib, ularning katta qismi, ya'ni 80 - 90 foizga yaqini vaqflar mablag'i hisobidan kun kechirgan.

Sovet hokimiyati o'rnatilganidan boshlab vaqflar mablag'ining kamayishi va boshqa sabablarga ko'ra eski usul (diniy) maktablari soni keskin kamayib ketdi 1923 yil boshiga kelib o'lka viloyatlarida 20 ga yaqin madrasa va 150 ga yaqin

¹ Komilov O. O'zbekiston ta'limidagi o'zgarishlar (XX asr boshlari). T.: Akademnashr, 2010. 123-bet.

maktab, qori-xonalar qolgan bo'lib, undagi o'quvchilar soni ham ancha ozaygan. Madrasalarda o'rtacha 10 - 15 talaba, maktab va qorixonalar-da 8 - 12 o'quvchi o'qigan.

Bosh vaqf boshqarmasi tuzilgan kundan boshlab bu maktablarni yangi usul dasturlariga o'tkazish orqali isloh qilishga kirishilgan. Ularda ijtimoiy-gumanitar fanlar va sovet mashg'ulotlarining salmog'i 40 foizni tashkil qilgan. Ana shu yo'sin-da 8 ta madrasa va 30 ga yaqin maktab isloh qilingan, qolganlari berkitilib, qorixonalar esa vaqflar ta'minotidan olib tashlangan. Ularning berkitilishiga ko'plab madrasa, maktab va qorixonalarining binolari zamonaviy talablarga umuman javob bermasligi va qayta qurish uchun katta mablag' kerakligi sabab qilib ko'rsatilgan.

1924 yil 1 apreldan boshlab islox qilingan maktablar xalq ta'limi yagona mehnat maktablari dasturining I bosqichiga o'tkazilgan.

Toshkent, Farg'ona va Samarqand hududlaridagi mahalliy diniy maktab, madrasa, qorixonalar vaqflar mablag'i hisobidan faoliyat olib borgan emaslar, ammo bu bilan O'zbekistonda eski usul (diniy) maktablarini tugatish ishi oxiriga yetdi degan xulosaga kelib bo'lmaydi. O'z-o'zidan ravshanki, barcha shahar, qishloqlardagi deyarli hamma mahallalardagi masjidlarda, shuningdek, din xizmatchilari, mulla, imomlarning uylarida maktablar tashkil etilgan, ulardagi o'quvchilarning aksariyati uylangan o'smirlar bo'lgan. Bu maktablar, xalq ta'limi nozirlari nazoratidan imkon qadar yashirincha faoliyat ko'rsatgan. Ba'zi hollarda mahalliy hokimiyatning o'zi bunday eski maktablarga qarshi kurashishga ojizlik qilgan.

Buxoro va Xorazm Halq Sovet Respublikalari hududlarida esa hali ham yagona mehnat maktablari tashkil qilish bo'yicha mutlaqo ish olib borilmagani sababli diniy va yarimdiniy aralash maktablar saqlanib qolgan.¹

Eski Buxoro rayoni va Zarafshon oblastida 1924 yil oktyabrigacha vaqflar mablag'i hisobidan 105 ta maktab faoliyat ko'rsatgan. Oktyabr oyidzn boshlab

¹ O'zbekistonning eng yangi tarixi. Ikkinchi kitob. T.: Sharq, 2000.

bunday maktablar soni qis-qarib borgan, 30 ta maktabdagina yangi usul dasturi qo'llanilgan, ulardagi o'quvchilar soni 800 kishidan, o'qituvchi mudarrislar soni 38 kishidan iborat bo'lgan. Bu maktablar dasturida ijtimoiy fanlarning ulushi 30 foizni tashkil qilgan, xolos. G'ijduvon, Qorako'l va Karmana uyezdlarida 267 ta maktab bo'lib, ulardan 124 tasi yangi usul dasturi asosida faoliyat olib borgan, ularda 2400 o'quvchi tahsil olgan va 150 mudarrislar bo'lgan.

Xorazm oblastidagi 1500 ta eski maktablar masjid (mahal-la) qaramog'ida bo'lgan. XXSRda ko'pgina madrasa va qorixonalar faoliyat ko'rsatgan. 1922 yildagi ma'lumotlarga qaraganda, respublikaning barcha rayonlaridagi 89 madrasada 189 mudarris, 101 imom, 89 muazzin, 338 xizmatchilar ishlagan. Madrasalarda 1395 ta talaba tahsil olgan. Bu madrasalar tasarrufidagi vaqf yerlarining o'zi 328054 tanobni tashkil qilardi. Bundan tashqari, madrasalarga qarashli ko'plab sano-at va savdo vaqf korxonalari ham bo'lgan. 1924 yildagi ma'lumotlarga qaraganda, XXSRda 126 ta madrasa bo'lgan. Eng ko'p madrasalar Xiva shahrida joylashgandi. 1924 yilning oxirida bu yerda 61 ta madrasa bo'lib, ulardan faqat 45 ta madrasa doimiy faoliyat ko'rsatib kelgan.

Xorazm Respublikasida qorixonalar ham ko'p edi. 1922 yilda XXSRda 195 horixona bo'lib, ularning yarmidan ortig'i ishlamasdi. Qorixonalarda hammasi bo'lib 172 qorilar o'qirdi. Qorixonalarga qarashli vaqf yerlari 35164 tanobni tashkil etardi. 1924 yilning 1 mayigacha 2500 o'quvchisi bo'lgan 500 ga yaqin maktab faoliyat ko'rsatgan. Yangi usul maktablari sekinlik bilan paydo bo'lishining boisi nimada degan tabiiy savol tug'iladi. 1924 yil 4 iyunda Bosh vaqf boshqarmasi raisining nutqida ana shu savolga qisman javob topilgan. Xorazm Xalq Sovet Respublikasida II bosqich madrasalar va maktablar 10 ta bo'lib, ularda 738 o'quvchi, 73 xizmatchi band edi. Qayta tashkil qilingan I bosqich maktablar 41 ta bo'lib, ularda 3080 na-far o'quvchi tahsil olgan.-Bu maktablarda 123 xodim faoliyat olib borgan. Boshqa hujjatlarda Turkiston Respublikasida 10 ta madrasa va 10 dan ortiq maktablar isdoh qilingan degan malumotlar ham uchraydi.

Ko'rinib turibdiki, dastlabki islohotlar davrida Bosh vaqf boshqarmasi

akademik bo'limi boshlig'i Munavvar Qori Abdura-shidxonov tomonidan faol ishlar amalga oshiriladi. 1923 -1924 yillarda Turkiston ASSRda eski maktablarning 40 foizini isloh qilish ko'zda tutilgan. Akademik bo'lim ma'lumotlariga qaraganda, mustamlaka Turkistonida 5600 maktab, ulardagi o'quvchilar soni 70000 dan ortiq bo'lgan, ammo 1923 - 1924 yillarda islohotlar sustlashdi. Maktablarni ta'mirlash ishlari tugamaganligi sababli bu rejalar to'liq amalga oshmay qoldi.

Maktablarni isloh qilish dasturiga ko'ra, o'quv jarayoni islohotlariga ehtiyot bo'lib, asta-sekin o'tish tavsiya etilgan. Dastlabki paytda yangi usulda o'qitish uchun kuniga uch soat ajratish tavsiya etilgan. Bunda o'quvchilar xat-savodga o'rgatilgan, ona tili va riyoziyot (matematika)ning oddiy kursi o'qitilgan. SHu bilan bir qatorda dunyoqarash (falsafa) bo'yicha dastlabki ma'lumotlar berish uchun har kuni 3 soatdan vaqt ajratiladigan bo'ldi.

Islohotlar jarayonida eski maktablarda diniy fanlarning isloh qilinishiga ham e'tibor qaratilgan. Bunda dars berish-ning yangi metodlari asosida uning axloq-odob darsiga aylan-tirilishi ko'zda tutildi.

Bosh vaqf boshqarmasi islohotlar jarayoniga astoydil kiri-shadi. Uning shahar va tumanlardagi bo'limlari ham yangi usul maktablarini sovetlashtirishga intildi, biroq bu ishning o'ta siyosiy va nozik ahamiyat kasb etishi, diniy maktablarni isloh qilib, saqlab qolishdan sovet organlarining manfaaatdor emasligi tufayli hukumat eski maktablarni isloh qilish uchun byudjetdan yetarlicha miqdorda mablag' ajratmagandi. Eski maktab-larda islohotni amalga oshirish jarayoni murakkab va qiyin kechdi. Pul mablag'larining yetishmasligi, eski binolarning talabga javob bermasligi, pedagog kadrlarning ozligini bahona qilib, sovet organlari eski usuldagi maktablarni isloh etishga shoshil-madi, bu muhim tadbirni hamisha orqaga surib keldi.

1924 yilda o'tkazilgan milliy-hududiy davlat chegaralari-shi natijasida O'rta Osiyoda O'zbekiston va Turkmaniston SSR, O'zbekiston SSR tarkibida Tojikiston Avtonom Sovet Respublikasi tuzildi. O'zbekiston SSR tarkibiga Turkiston

ASSRning Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand viloyatlari, shuningdek, sobiq Buxoroning markaziy va g'arbiy qismlari ham kiritilgan.

Qadimdan islom an'analari va urf-odatlarini katta ahamiyat kasb etgan Buxoroda sovet hokimiyati o'rnatilgandan keyin ham eski maktablar o'z faoliyatini davom ettirdilar. Tabiiyki, ular musulmon aholisi orasida muhim o'rin egallagan. Bu-xoro inqilobiy qo'mitasining 1921 yil 5 yanvardagi dekreti hamma yerlarni umumxalq mulki deb e'lon qildi. Vaqf yerlari tugatildi, ayrim toifadagi xo'jaliklarning chorva mollari va mulklari musodara etildi, lekin 1921 yil kuzida yerni tortib olish bekor qilindi. Buxoro Markaziy Ijroiya Qo'mitasining umumiy avf to'g'risidagi 1922 yil 25 maydagi dekreti vaqflarni tugatishni to'xtatish, qozixonalar ishini, shariat ko'rsatmalarini tiklash va boshqalarni e'lon qildi.

1923 yil 11 - 17 oktyabrdagi BXSRSovetlarining IV qurultoyida A.Abdusaidovning vaqf to'g'risidagi ma'ruzasi tinglanib, vaqf haqida qaror qabul qilindi. Bu qarorda vaqf yerlarini ijaraga olib foydalanayotgan vaqfkor dehqonlardan yetishtirilgan hosilning 10 foizi, ya'ni ushr solig'i olish joriy etilgan. Madaniy-ma'rifiy maqsadlar uchun vasiyat qilingan vaqf mulklarining daromadi faqat quyidagi ehtiyojlar uchun sarflanadigan bo'ldi:

- yangi usul maktab va madrasalarni ta'minlashga;

- muallimlar, tashviqotchilar, maktab tashkilotchilari kurslarini ta'minlash uchun;

- eski maktab, madrasalarni isloh qilish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga;

- maktab va madrasalarning eski binolarini ta'mirlash va saqashga.

1924-1925 byudjet yilida Buxoro vaqflarining umumiy daromadi 882889 rublni tashkil etdi. Buxoro Respublikasi hududida hisobga olingan vaqf mulklari jadvalda o'z aksini topgan:

№	Vaqf mulklari	Soni
1	Madrasalar binolari	231
2	Eski usul maktablari	429
3	Qabristonlar	133
4	Qorixona binolari	199

5	Masjidlar	2306
6	Maqsura-vaqf	66
7	Aralash vaqflar	4
Jami		3368

1925 yilda Buxoro Respublikasidagi madaniy-ma'rifiy, diniy vaqflar soni avvalgi davrlarga qaraganda ortib bordi. Bosh vaqf boshqarmasining Buxoro Respublikasidagi vaqf mulklari haqidagi ma'lumoti quyidagi jadval orqali aks ettirilgan:

Buxoro Respublikasidagi vaqf mulklari turlari va ularning soni (1925 yil)

№	Vaqf mulklari turlari	Madaniy-ma'rifiy vaqflarga tegishli bo'lgan mulklar	Diniy vaqflarga tegishli bo'lgan mulklar	Jami
1	Do'konlarga tegishli joylar	960	1117	2077
2	Karvonsaroylar	111	48	159
3	Mahalliy turdagi hammomlar	8	7	15
4	Suv tegirmonlari	9	10	19
5	Bozor maydonlari	11	16	27
6	Turarjoylar	48	7	55
7	Er tomorqalari, tanob	327037	161127	488164

YUqorida keltirilgan jadvallardan ma'lum bo'lishicha, Buxorodagi diniy vaqflarga tegishli yerlar 161127 tanobni tashkil qilgan. Ushbu yerdan foydalanuvchilar uchun alohida ijara to'lovi mavjud bo'lib, yetishtirilgan hosilning 10 foizi miqdorida qishloq xo'jalik solig'i sifatida to'langan.

1925 yil oxirlariga borib Buxoro Respublikasidagi vaqflar tizimi hisobidan saqlanayotgan madaniy-ma'rifiy muassasalar shaxobchalari ko'payib bordi. Respublikadagi yangi usul maktablari soni o'sishda davom etdi. Madaniy-ma'rifiy muassasalarning soni jadvalda ifodalangan:

Buxoro Respublikasidagi madaniy-ma'rifiy muassasalar soni (1925 yil)

№	Nomi	Soni
1	Qayta tuzilgan madrasalar	10
2	Yangi usul maktablari	90
3	Kutubxonalar	2
4	Sovet yagona mehnat makgablari: I bosqich maktablari	3
5	II bosqich makgablari	4

1925 - 1926 yillarda Buxoro okrugidagi vaqf bo'limi faoliyatini uning 1927 yil aprelda Bosh vaqf boshqarmasiga bergan hisoboti ma'lumotlaridan (1926-1927 xo'jalik yilining birinchi yarmi, ya'ni 1926 yil oktyabridan 1927 yilning mart oyigacha bo'lgan davrni) ko'rish mumkin. Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro okrugida 1925 yilda 14 maktab, 26 madrasa mavjud bo'lgan bo'lsa, 1926 yilda 116 madrasa, 1927 yilda esa 312 madrasa faoliyat olib borgan. Okrugdagi maktablar soni 1926 - 1927 yillarda 14 ta bo'lgan.

Davlat vaqf organlarining vaqf mulklari soni hamda ularning daromadini oshirishdan ko'zlagan maqsadi - bu davlat byudjetidan tashqari vaqf mablag'lari asosida sovet maorifini rivojlantirish bo'lgan. SHu bilan birga davlat vaqf organlari madrasa, maktablarning vaqf mulklaridan tushadigan mablag'ini kamaytirib yoki butunlay mahrum etib, ular faoliyatini susaytirish va to'xtatishga harakat qilgan.

1925 - 1926 yillarda O'zbekistonda eski usuldagi maktablar soni 1585 tani tashkil qilgan (jadval). Ulardagi o'quvchilar soni 5, 20, 25 tagacha yetgan, o'rtacha hisobda o'quvchilar soni 10 - 12 tani tashkil qilgan. Mazkur maktablarda taxminan 16000 ta o'quvchi tahsil olgan.

O'zbekiston SSRdagi eski usul maktablari soni (1925 -1926 yillar)

	Viloyatlar	Maktablar soni
1	Toshkent viloyati	5
2	Farg'oka	157
3	Samarqand	94
4	Zarafshon	185
5	Xorazm	876
6	Qashqadaryo	119
7	Surxondaryo	149
	Jami	1585

Jadvaldagi raqamlardan ma'lum bo'lishicha, maktablar soni avvalgi davrlarga qaraganda kam bo'lishiga qaramay, ularning soni hali ham sovet maktablaridan ortiqroq edi.

O'zbekiston SSRda 1926-1927 o'quv yilida eski usul maktablarining soni 1305 ta bo'lib, ularda 19699 ta tinglovchi, 57 qorixonada 1484 qorilar tahsil olgan.

1926 - 1927 o'quv yilida eski maktablarning o'quv dasturi quyidagicha bo'lgan: birinchi o'quv yilida, asosan, haftasiga 20 soatdan dars mashg'ulotlari olib borilgan. SHundan 12 soati alifbeni o'qish va yozishni o'rganishga, 6 soati raqamlar bilan tanishishga, 2 soat esa "Vatan tarixi" darsiga bag'ishlangan. Bundan tashqari, mazkur o'quv yilida tozalik, tibbiy tayyorgarlik darslari ham o'tilgan.

Ikkinchi o'quv yilida bir haftada 26 soatdan dars o'tilgan. Bunda 2 soat ma'ruza o'tilgan, xolos. Qolgan 24 soat mobaynida turli xil fanlardan dars olib borilgan.

Uchinchi o'quv yilida 6 soat hajmida dars o'tilgan. Unda "Qur'on" "tajvid" bilan o'qitilgan. Ortib qolgan vaqtlarda jadid namoyandalari tomonidan yozilgan kitoblar o'qitilgan.

Yangi usul maktablarida diniy, dunyoviy fanlarning birga-likda o'qitilishi aholining ehtiyojlariga to'la javob berganligi uchun ota-onalar o'z farzandlarini shu maktablarga berish-ni ma'qul deb bildilar. Hatto davlat himoyasida bo'lgan, byudjetdan doimiy mablag' bilan ta'minlanuvchi sovet maktablari o'quvchilari ham ko'p hollarda o'z maktablarini tashlab, eski mak-tablarda o'qishni davom ettirgan.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, XX asrning 20-yil-larida sovet hukumati tomonidan tuzilgan Bosh vaqf boshqarmasi o'lkada mavjud eski maktablarni ma'lum darajada isloh qildi. Bu jarayonda, avvalo, jadidlarning yorqin namoyandasi bo'lgan mohir pedagog Munavvar Qori Abdurashidxonov faol ishtirok etdi. U ikki bosqichdan iborat bo'lgan islohotlar das-turini ishlab chiqdi. Isloh qilingan maktablar uchun yangi darsliklar yaratdi. Eski maktablar olib borilgan islohotlar natijasida yangi usuldagi maktablarga aylantirildi, biroq ularning yagona mehnat maktabi dasturiga o'tkazilishi aslida noto'g'ri qilingan harakat edi. Yangi usul maktablarini tashkil etish ishlari ham to'g'ri olib borilmadi, bu boradagi ishlarning yetarlicha tayyorgarliksiz olib borilishi diniy fanlarni o'quv dasturlari va o'quv jarayonidan siqib chiqarishga qaratilgandi. Bunday tadbirlarni amalga oshirishga musulmon xalqlari tayyor emas hamda diniy maktablarning sovetlashtirilishiga qarshi edilar. SHuninguchun yangiusul maktablarining yopilishi va ularning o'rnida sovet maktablarining ochilishi mahalliy aholida qattiq norozilik tug'dirdi. Bu chora-tadbirlar ma'muriy zo'ravonlik uslubi asosida olib borilgani vaziyatni yanada og'ir-lashtirdi. Eski maktablarni isloh qilish jarayoni bir qator ziddiyatli savollarni keltirib chiqardi. Turkistonda sovet-lar bosqiniga qadar 5600 dan ko'proq eski maktablar borligini hisobga oladigan bo'lsak, bu maktablarni bitirganlar 20-yillarda aholi savodsizligini tugatishda muhim ahamiyat kasb etib, o'zbek milliy ziyolilarining yosh avlodini shakllantirishda katta rol o'ynagani ma'lum bo'ladi.

2. MILLIY MAKTABLARNING TUGATILISHI

XX asrning 20-yillari boshlarida O'zbekistonda sovet, eski usul maktablari, masjid va madrasalar hamda qorixonalar faoliyat olib bordi. O'zbekistondagi eski maktab va madrasalarni sovetlashtirish va ularni tugatish haqidagi masala 1921 yil 17 mayda Turkiston Maorif xalq komissarligi hay'ati yig'ilishida muhokama qilindi. Unda "eski usuldagi maktablarning mavjud bo'lishiga yo'l qo'yib

bo'lmasligi" tan olinib, "maktab yoshidagi bolalarning sovet maktablari bilan ta'minla-nishiga qarab ularni yopib qo'yish choralarini ko'rish"ga qaror qilindi.

Sovet amaldorlari xalq maorifini rivojlantirish ishini, asosan, eski maktablarni tugatish va Bosh vaqf boshqarmasi ixtiyoridagi barcha maktablarni yagona sovet maktabiga qo'shib yuborish bilan uyg'un holda ko'rdilar. Vaqf boshqarmasi maktablari 1922 yilda tashkil etilgandi. Bu maktablarda arif-metika, geografiya va ona tili bilan bir qatorda diniy axloq darslari ham o'qitilardi. Bunday maktablar, sovetlar g'oyasi bo'yicha, eski maktabdan sovet maktabiga o'tishning bir shakli edi.¹

Eski maktablar faoliyatini cheklash va ularni sovet maktablariga aylantirish maqsadida hukumat tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Maorif xalq komissarligining Turkiston MIQning uchinchi chaqiriq II sessiyasida bergan hisoboti-da eski maktablarning sovetlashtirilishi masalasi ikki bosqichda amalga oshirilgani qayd etildi. Birinchi bosqich 1923 yilning sentyabridan 1924 yil aprelegacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Bu davrda eski maktablar dasturlari bilan bir qatorda yagona mehnat maktabi dasturiga o'tilganligi ta'kidlangan. Ikkinchi bosqichda esa to'laligicha yagona mehnat maktabi dasturiga amal qilina boshlandi, ya'ni 1924 yil apreldan boshlab bu muassasalar to'laligicha sovetlashtirildi va diniy fanlar butunlay siqib chiqarila boshlandi.

Toshkent Eski shahar ijroiya qo'mitasi, Turkiston Respublikasi Maorif xalq komissarligi hamda vaqf boshqarmasining xatti-harakatlari respublika ho'kumatining 1923 yil 17 martdagi ko'rsatmasiga asoslangan edi. Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Soveti vaqf mablag'lari haqidagi masalani ko'rib chiqib, shunday qaror qabul qildi:

Madaniy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan vaqf mablag'laridan:

- a) birinchi navbatda sovet maktablari ta'minlansin;
- b) yangi usul maktablarini qo'llab-quvvatlab, keyinroq mahalliy ijroiya qo'mitalari qarori bilan o'quv yurtlari tarmo-

¹ Komilov O. O'zbekiston ta'limidagi o'zgarishlar (XX asr boshlari). T.: Akademnashr, 2010. 128-bet.

g'iga kiritish uchun sovetlashtirishga harakat qilinsin;

v) diniy ahamiyatga ega mulklarning faqat bir qismi diniy maktablarga berilsin.

Hukumatning bu qarori qat'iy bo'lib, o'lkaning shart sharoiti, aholining dunyoqarash va ruhiyati hisobga olinmagandi. Ma-halliy organlar va xalq ta'limi organlari yangi usuldagi maktablarni sovet maktablariga aylantirishga qaror qildilar. Ammo Turkiston ASSR MIQning vaqf to'g'risidagi dekreti bekor qilinmadi. Mahalliy organlarning taqiqlashlariga qaramay, madrasa va maktablar eski dastur asosida faoliyat yuritaverdilar, lekin ularning faoliyati tobora cheklanib bordi. 1922 yil 28 dekabrda dekretga asvsan ular vaqf bo'limlari tomonidan moliyalashtirilgan bo'lsada, 1924 yilning o'rtalariga kelib mahalliy organlar qaroriga ko'ra moliyalash ishlari to'xtatib qo'yildi.

Bosh vaqf boshqarmasining 1924 yil 20 avgustdagi hisobotida esa shunday deb ta'kidlangan: "1924 yil 1 apreldan bosh-lab yangi usuldagi maktablar birinchi bosqich yagona mehnat maktabi dasturiga o'tdilar, madrasalar ikkinchi bosqich maktablari hisoblanadi. SHunday qilib, Bosh vaqf boshqarmasi ixtiyo-rida diniy va yangi usuldagi maktablar mutlaqo qolmadi".

Boshqarma yangi usuldagi maktablarning sovetlashtirilishi-ga alohida ahamiyat berdi. Jumladan, 1924 yil vaqf idoralari tomonidan hisobga olingan 212 madrasa va 191 maktab-dan 738 talabasi bo'lgan 10 madrasa, 3080 o'quvchisi bo'lgan 41 maktab sovetlashtirildi.

O'zbekiston SSR Maorif xalq komissari Rahim Oxunjonovich Inog'omov 1925 yil oktyabr oyida o'tkazilgan Markaziy Qo'mi-taning yalpi majlidida eski maktablar faoliyati xususida ma'ruza qildi. R.Inog'omov bu maktablarga qarshi hukumat tomonidan har qanday tazyiq, ta'qiblar amalga oshirilishiga qaramay, ularning soni ko'pligini hamda ularning sovet maktablariga nisbatan nufuzi balandligini ochiqdan-ochiqtan oldi. Xalq komissari ularning faoliyatiga, jumladan, quyidagicha salbiy baho bergandi: "Eski usul maktablari haqiqatda sho'ro hokimi-yatiga qarshi ish ko'radurg'on muassasalardir. Bular qishloq

yoshlari orasida bizning tuzilishimizga qarshi bo'lgan o'zlarining urug'larini sochadi".¹

Majlis yakunida R.Inog'omov eski maktablarni sovet maktab-lariga to'laligicha aylantirish taklifini beradi. Jumladan: "Bizda eski asos saqlanur - isloh qilish asosi eski maktab-larga sho'ro maktabi ruhi kirgizish va eski maktablarni sho'ro-lashtirish", - degan fikrlarni bildiradi, biroq sovet hukumatining bunday siyosati kutilgan natijani bermaydi. XX asr-ning 20-yillari ikkinchi yarmida SSSRda ateistik harakat avj olib, u davlat siyosatining uzviy bo'lagiga aylandi. Ushbu siyosat yuzasidan joylarda ko'plab "Xudosizlar jamiyati" tuzildi. Ana shunday jamiyat 1923 yilda Andijonda ham maydonga kelgandi. Ushbu jamiyatlar diniy tasavvurlarga, uning peshvola-riga qarshi kurash olib bordi, uning joylardagi tashkilotlari zo'r berib ateistik faoliyat ko'rsatdi. Ateizmga doir maxsus gazeta va jurnallar nashr qilindi. Mazkur yillar davomida sovet hukumati tomonidan o'zbek xalqining olis asrlarga borib taqaluvchi moddiy va ma'naviy madaniyat durdonalari, maktab, madrasalarga qarshi zo'rlik yo'li bilan kurash olib borildi. Islom dini va musulmon ruhoniylari kamsitilib, eski usuldagi maktablar "eskilik va xurofot uyasi" sifatida ta'riflandi.

O'zbekiston SSR KPning 1925 yil noyabrda bo'lib o'tgan II s'ez-dida sovet maktablari sonini ko'paytirish, maktab yoshidagi bolalarni sovet maktablariga jalb etish, mahalliy millat vakillarining diniy va xususiy maktablar ochish uchun harakat qilishlariga yo'l qo'ymaslik lozimligi ta'kidlandi. Birgina 1925 - 1926 yillarda O'zbekistonda 100 ga yaqin vaqf maktab» lari, 250 tasi yashirin holda ishlaydigan 1600 dan ortiq eski maktablar bor edi. Bu esa, o'z navbatida, mavjud tuzum ma'naviy qiyofasi hamda mafkurasiga mos tushmasdi.

Sovet hukumati ijtimoiy hayotdagi ko'plab sohalarni tub-dan o'zgartirishga harakat qildi. 20-yillarning ikkinchi yarmidan ma'muriy-buyruqbozlik tizimining qaror topishi milliy maorif sohasi rivojlanishini ham bo'g'ib qo'ydi. Hukumat idoralari tomonidan diniy maktablarni yopishga katta e'tibor berila boshlandi.

¹ Komilov O. O'zbekiston ta'limidagi o'zgarishlar (XX asr boshlari). T.: Akademnashr, 2010. 129-bet.

XX asrning 20-yillari o'rtalariga borib sovet hukumati-ning ta'limga, xususan, milliy maorifga qarshi siyosati yanada kuchayib ketdi. Mana shu davrlarda Turkistonda 2403 ta eski maktab mavjud bo'lgan. Turkiston MIQning 1924 yildagi №5 sonli "Maorif oyligi to'g'risida"gi qaroriga muvofiq O'zbekiston SSRdagi barcha eski usul maktablari 1925 yilning 18 yanvaridan boshlab qattiq nazorat ostiga olindi. Qarorda: "Eski usul maktablarining barchasini hisobga olish kerak. Ularning ta'minoti to'laligicha diniy vaqflar mulki hiso-biga o'tkazilib, asta-sekin davlat maktablari tizimiga o'tkazib borish kerak. Barcha eski usul maktablari o'qituvchilari xalq ta'limi bo'limlaridan ro'yxatdan o'tkazilib, faqat uning na-zorati ostida ishlashlari majburiydir", - deya ta'kidlangandi.

Mazkur qarorga asosan 1925 yilning dekabr oyida Toshkent Eski shahar ijroiya qo'mitasining "Eski usul maktab, madrasa va qorixonalar islohoti to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorga ko'ra:

- Maorif xalq komissarligining rasmiy ruxsatisiz maktab, madrasa, qorixonalarni tashkil etish, ushbu o'quv yurtlariga 3 kishidan ortiq shaxslarni to'plash va dars berish, eski shahar hududlaridagi xususiy xonadonlarda, masjidlarda diniy bilimlardan saboq berish qat'iy taqiqlanadi;

- ushbu qarorni bajarishni xohlamaydigan shaxslar 1926 yil-ning 1 yanvariga qadar sobiq Beklarbegi madrasasida joylashgan xalq maorifi bo'limiga xabar berishlari so'raladi, shuningdek, 1926 yilning 1 yanvarigacha xalq ta'limi va vaqf bo'limlariga berilgan barcha ruxsatnomalar bekor qilinsin;

- mazkur qarorning bajarilishini bevosita nazorat qilish rayon militsiya bo'limi va mahalla qo'mitalari zimmalariga yuklatilsin;

- 1926 yil 1 yanvardan so'ng mazkur qarorni buzgan shaxslar Jinoyat kodeksining 39-moddasiga ko'ra 300 rublgacha jarima yoki bir yilgacha majburiy mehnatga jalb etiladi, maktab va madrasalar binolari yopilib, ularning mulklari tortib oli-nib, vaqf bo'limlariga berilishi ko'zda tutiladi (bu qaror so-vet maktablari, kurslari, texnikumlari va boshqa sovet o'quv yurtlariga taalluqli emas).

Mazkur qarorning ijro etilishi bo'yicha O'zbekiston SSR Adliya xalq

komissarligining prokuratura bo'limiga yo'llagan xatida shunday deyilgan:

"SHu yilning (1926 yil) 21 martida sizga Toshkent Eski shahar ijroiya qo'mitasining eski usul maktab, madrasa va qorixonalarini isloh qilish haqida chiqarg'an qarori e'tiroz bildirish uchun yuborilg'an edi, ammo hozirg'acha bu masala hal bo'lmasdan turadir. O'zbekiston MIQning tashkilot sho'basi shuning ba-robarida sizdan shu yilning o'n oltinchi iyuniga qadar soat 12 ga bu masalaning qanday ahvolda bo'lg'anini va bu haqida sizning tarafingizdan nimalar qiling'anini bildirmagingizni so'raydi".¹

Toshkent Eski shahar ijroiya qo'mitasining qarori aholini junbushga keltirdi va norozilik tariqasida har bir mahalla, madrasa, maktab va qorixonadan Ruhoniylar kengashiga va bo-shqa tashkilotlarga yuzlab, hatto minglab kishilar imzo chekkan 200 taga yaqin ariza tushdi. Arizachilarning vakillari esa Eski shahar ijroiya qo'mitasiga va xalq maorifi tashkilotlariga murojaat qilishdi, lekin bu tashkilotlar fuqarolarning ari-zalariga ijobiy javob berishmadi.

Sovet hukumatining yangi usuldagi maktablarni sovetlashti-rish siyosati kutilgan natijani bermaganligi Maorif xalq ko-missari Davlat Rizayev tomonidan tan olingan. "Biz eski mak-tablarni sho'rolashtirishga qancha harakat qilib, qancha kuch sarf etsakda, - degandi u, - maqsadimizg'a muvofiq natijaga ega bo'lg'on emasmiz".

Sovet hukumatining eski maktablarni sovetlashtirish siyo-sati kutilgan natijani bermaganidan keyin bu maktablarni iqtisodiy va huquqiy jihatdan tugatish bo'yicha izchil siyosat olib borildi.

Yil oxirlariga borib okruglar xalq ta'limi bo'limla-ri eski usul maktablarining faoliyatini to'xtatish ishlarini kuchaytirdi, bu maqsad yo'lida kelgusi yilda maxsus fond bar-po etilishi ko'zda tutildi va unga to'laligicha kredit ajratildi.

O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi 1925 yil 19 de-kabrda "Vaqflar haqida"gi 168-qarorni e'lon qildi. Unda mana bular yozilgandi:

- vaqflar mulklarini, ushbu qaror chiqquniga qadar, mulk-dan voz kechish

¹ Komilov O. O'zbekiston ta'limidagi o'zgarishlar (XX asr boshlari). T.: Akademnashr, 2010. 130-bet.

yo'li bilan xususiy shaxslar, birlashmalar to-monidan madaniy-ma'rifiy yoki ijtimoiy-foydali muassa-salarga hadya va vasiyat qilingan mulklarni, shuningdek, ular-dan foydalanish huquqini belgilagan tashkilotlar xayriya mulklari daromadidan ehtiyoji uchun manfaatlanishi yoki shuni amalga oshirish huquqidan foydalanishi mumkin, deb topilsin;

- madaniy-ma'rifiy, ommaviy-foydali maqsadlarda ta'sis qilingan vaqflar mulki davlat mulki, deb hisoblansin.

Sovet hukumatining eski maktablarga nisbatan sovetlashtirish siyosatini olib borishiga qaramasdan, ular o'z faoliyati-ni yana davom ettirdi. Ma'lumotlarga ko'ra, 20-yillarda ham O'zbekiston SSRda ko'plab eski maktablar faoliyat yuritgan. 1924 - 1925 o'quv yilida Qashqadaryo oiloyatida 1523 nafar o'quvchisi bo'lgan 76 ta eski maktablar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, Sur-xondaryo viloyatida eski maktablar soni 205 tani tashkil etgan.

21 sentyabrda O'zbekiston SSR Adliya xalq komis-sarligining Maorif xalq komissarligi vakillari bilan yig'i-lishi bo'ldi. Unda O'zbekistondagi eski usul maktablarini isloh qilish masalasi ko'tarildi. Kengash Turkiston ASSR MIQning 1922 yil 20 iyundagi bergan takliflarini o'rganib, maktab-larni isloh qilish qoidasini ishlab chiqdi.

30 oktyabrda O'zbekiston SSR Maorif xalq komis-sarligi hay'ati yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda hay'at azolari-dan Mo'minxo'jayev, Poroshin, Saidov, Inoyatovlar qatnashdi. Mazkur yig'ilishda boshqarma vakillaridan Kalistratov, Serbov, Pexovich, CHernyayevskiylar ham ishtirok etdi. Yig'ilishda Maorif xalq komissarligi qoshida "Eski usul maktablarini qayta tashkil etish haqida" alohida komissiya tuzishga kelishib olindi. SHu paytdan boshlab mazkur masala bo'yicha loyiha tuzilib, u qonuniy ravishda kuchga kira boshladi.

1926 yildan boshlab O'zbekiston SSRdagi eski maktab va qorixonalarining faoliyat yuritishiga oid hukumatning qat'iy choralari ishlab chiqildi. Unga ko'ra, eski maktab va qorixonalarni ochishda quyidagi shartlarga amal qilinishi talab etildi:

- bino quruq, yorug', issiq, yetarli darajada havo almashinadigan bo'lishi;
- maktab va qorixonalar maktab jihozlari, tinglovchilar uchun parta va stollar bilan ta'minlanishi;
- 8 yoshga yetmagan bolalarning maktabda o'qitilishiga yo'l qo'ymaslik;
- ona tili, arifmetika, tabiatshunoslik fanlarining o'qitilishi;
- tan jazosi va boshqa jazolarga o'rin bo'lmasligi;
- 10 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun darsning davomiyligi 4 soatdan oshmasligi, har 40 minutlik darsdan so'ng dam olish uchun tanaffus bo'lishi; 10 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarga 5 soatdan va 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lganlar xuddi shunday tanaffus bilan 6 soat o'qishi, shuningdek, o'quv yilining oxirida sovet maktablarida belgilangan muddatlarda dam olishga chiqish;
- o'qituvchilarning shaxsiy ehtiyojlari uchun o'quvchilar mehnatidan foydalanishni man etish;
- maktablarga sovet maktabidan chiqqan o'quvchilarni qabul qilishni taqiqlash;
- eski maktab va sovet maktabi o'rtasidagi aloqani yo'lga qo'yish;
- qorixona ochishda, maktab ochishda talab qilinadigan sharoitlar bo'lishi shart, bundan tashqari, qorixonaga kirayotgan o'quvchilar yoshi 15 dan kam bo'lmasligi kerak.¹

Darhaqiqat, sovet hukumati tomonidan eski maktablarni berkitish uchun urinishlar ko'p hollarda samarasiz bo'ldi. Bunga bir misol keltirish mumkin. 1926 yili Andijon shahridagi sovet va partiya tashkilotlari rahbarlaridan bir necha kishi eski maktabga borib, maktabdorga bu maktabni yopish lozimligini aytishgan, bu yerda parta yo'qligi, yorug'lik kamligi, namlik va boshqalar bolalar sog'ligini saqlash tartibiga nomuvofiq ekanligini sabab qilib ko'rsatishgan. Ertasi kuniyoq maktabga partalar keltirilib, devorlar oppoq qilib bo'yalib, yangi de-raza o'rnatilgan, qisqasi, har qanday talabga javob beradigan holatga keltirilgan.

¹ Komilov O. O'zbekiston ta'limidagi o'zgarishlar (XX asr boshlari). T.: Akademnashr, 2010. 131-bet.

Bundan shu narsa ko'rinadiki, eski mak-tablar aholi tomonidan har jihatdan qo'llab-quvvatlangan.

O'zbekiston KP (b) MQning 1927 yil 14 iyunda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan VI Plenumi musulmon ruhoniylari va maktablari haqidagi masalani muhokama qiladi. Plenumda O'zbekiston KP MQning kotibi A.Ikromov "Ruhoniylar va mak-tab to'g'risida" ma'ruza qiladi. Ma'ruzada "1919 - 1920 yillarda mahalliy aholidan hech kim o'z farzandlarini sovet maktablariga bermagan"ligi alohida eslatib o'tiladi.

1927 yil 22 avgustdagi Samarqandda O'zbekiston SSR Mao-rif xalq komissarligi hay'atining yig'ilishida Poroshin, Ino-yatov, Qodirov, Moiseyenko, Pexovich, Kalistratov, Boykolar qat-nashgan. "YAgona mehnat maktabining birinchi Nizomi" loyihasi tasdiqlanadi. Nizomda xususiy maktablarning mavjud bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi ham belgilab qo'yiladi. Xususiy maktablarni ochishga hukumatning maxsus qarori mavjud bo'lganda-gina ruxsat etilishi ta'kidlanadi.

Agar 1927 - 1928 yillarda O'zbekistonda 1576 ta yangi, bi-rinchi bosqich maktabi ishlab turgan bo'lsa, shu vaqtda respublika hududida 1305 ta eski, diniy makgab faoliyat yuritdi.

1927 yili "Za partiyu" jurnali orqali siyosiy doiralar eski usuldagi va jadid maktablariga qarshi kurash e'lon qiladi. Natijada ular sovet ma'murlari tomonidan asta-sekin ber-kitilib, 20-yillar oxiriga kelganda o'z faoliyatini butunlay to'xtatishga majbur bo'ladi.

1927 yil 31 oktyabrda O'zbekiston SSR MIQ mahalliy byudjetlar bo'yicha komissiyasining okrug ijroiya qo'mitalari vakillari ishtirokida maxsus yig'ilishi bo'ladi. Majlisda mahalliy byudjet masalasi bilan bir qatorda eski maktablarning tugatilishi masalasi ham ko'rib chiqiladi. O'zbekistonda eski usul maktablarini tugatish uchun davlat byudjetidan 260000 rubl ajratilgani, eng ko'p mablag', ya'ni 70000 rubl Andijon okrugiga ajratilgani qayd etilgan. CHunki okrugda diniy mak-tablar soni boshqa joylarga nisbatan ko'p edi. 1927 yil okrug-da 39 madrasa, 400 maktab, 17 qorixona mavjud bo'lib, ularda 10148 nafar talaba tahsil olgan.

Sovet hukumati eski maktablarni tugatish uchun, birinchidan, sovet maktablarini yuqori saviyaga ko'tarish va shu orqali o'quvchilarni sovet maktablariga tortish, ikkinchidan, targ'ibot-tashviqot ishlarini yo'lga qo'yish vositasida bu kurashga aholining kambag'al va o'rtahol qismini jalb etishga harakat qildi.

1927 yil O'zbekiston SSR MIQ III sessiyasida "Eski usul maktablarini tugatish to'g'risida"gi masala ko'tariladi. Mazkur sessiyada O'zbekiston SSR Maorif xalq komissari Mannon Ramziy (1931 yilda vazifasidan ozod etilgan) ma'ruza qiladi. U o'z ma'ruzasida eski usul maktablari va ularning faoliyati haqida to'xtalib, shunday deydi: "Sobiq Turkistonning oktyabr to'nta-rishigacha asosiy okruglarida - Farg'ona, Samarqand va Toshkentda 5833 diniy maktab bor edi. Agar bularga Buxoro va Xorazmni qo'shsak, unda hozirgi O'zbekiston hududida to'ntarishga qadar 6505 diniy maktab bo'lib, bu maktablarda o'quvchilar soni 104000 dan ortiqni tashkil etardi. Burjuaziya, xususiy mulkdorlar va amaldorlar, mehnatkashlar ommasi o'z farzandla-rini eski usul maktablari, qorixona, madrasalarda o'qitishga majbur edi. Oktyabr to'ntarishidan so'ng biz sovet maktablarini zudlik bilan tashkil qila boshlaganimizda va ularning ri-vojlangani sari eski usul maktablarining soni kamayib bor-di. Oktyabr to'ntarishigacha 6505 diniy maktab bo'lgan bo'lsa, 1927 yil ulardan 1305 maktab qoldi. Demak, eski usul maktab-larining asta-sekin kamayishi kuzatilmoqda. Bunday holat biz-ni qoniqtirmaydi, negaki, eski usul maktablarining soni oxirgi paytda ozaydi, vaholanki, ular saqpanib qolgan edi".¹

U o'z ma'ruzasida Komfirqa mafkurasi ruhi bilan sug'orilgan fikrlarini yana davom ettirib, eski usul maktablarini tugatish masalasi doimiy kun tartibiga qo'yilishini ta'kidlaydi: "Eski usul maktablari faqat savodlilarni chiqaribgina qolmay, balki g'oyaviy zararli va hayotga moslashmagan odamlarni tarbiyalaydi. Bu maktablar yoshlarni sovet hokimiyatiga qarshi tarbiyalaydi. Qo'qon muxtoriyati tor-mor etilgandan so'ng Parij va Turkiyaga ketib qolgan milliy

¹ Komilov O. O'zbekiston ta'limidagi o'zgarishlar (XX asr boshlari). T.: Akademnashr, 2010. 133-bet.

ziyolilardan CHO'qayev, Zaki Validiy va boshqalar eski usul maktabini himoya qilib, "NOVUY Turkestan" jurnalida quyidagilarni ta'kidlab o'tgan: "Milliy Vataniga o'z muhabbatlari sababli Moskvaga sotilmagan turkistonlikpar o'z farzandlarini eski maktablarda tarbiyalamoqdalar...". Demak, kimki o'z farzandini eski usul maktabida tar-biyalaydigan bo'lsa, o'z suyukli Vatanini Moskvaga sotmagan, milliy burjuaziya g'oyalariga sodiq bo'lar ekan".

Ma'ruzada 1926 yili "eski usul maktablarida ruhoniylarning harakatidagi jonlanishda Andijon okrugi birinchi o'rinda ekani va joriy yilda eski usul maktabiga qarshi o'tkazilgan ba'zi bir tadbirlar tufayli bu jonlanish xiyla pasaygani" ta'kidlangan. "O'tgan yili biz byudjetdan bir qancha mablag'ni eski usul maktablariga qarshi kurashish fondini ajratgan edik, - deyilgan edi ma'ruzada. - Bu fond eski usul maktablari berkitilgan joylarda sovet maktablari tashkil qilishga yo'naltirildi. Bundan tashqari, o'tgan yili eski usul maktablariga nisbatan ba'zi bir cheklashlar qilindi, bunda: 14 yoshgacha bolalar eski usul maktablariga olinmaydi; sovet maktabining hech bo'lmasa bir sinfini tugatmagan bolalar eski usul maktabiga qabul qilinmaydi; sog'liqni saqlash tashkilotlari eski usul maktablaridan oz bo'lsada tibbiy ozodalikni talab qilishi darkor. Ushbu tadbirlar ma'lum darajada foyda berdi, biz eski usul maktablarining bu yilda tushkunligini ko'rmoqdamiz.

Agar biz 1926-1927 o'quv yilida 1305 eski usul maktablari-ga ega bo'lgan bo'lsak, hozirda biz ularning nisbatan kamayganini bilamiz va bu holatni ba'zi bir okruglar bo'yicha ham yorqin ifodalash mumkin. Masalan, 1926-1927 o'quv yili Andijon okrugida atigi 21 ta maktab qoldi, ya'ni yiliga 93 foiz kamayish kuzatildi".

Ma'ruzachi so'zini yakunlab, shunday degan: "Eski usul maktablarini tugatish sovet maktabi uchun kurashning bir chorasi-dir. O'zbekiston SSR MIQ sessiyasining Maorif xalq komissarligiga taqdim etgan eski usul maktablarini tugatish to'g'ri-sidagi dekret loyihasining tasdiqlanishini so'rayman".

O'zbekiston SSR Maorif xalq komissarligi inspektori Vohidov 1927 yil iyun

oyidan 17 avgustgacha Andijon okrugida xalq maorifi bo'limi faoliyatini tekshiradi va u bo'yicha max-sus hisobot tayyorlaydi. Mazkur hisobotda, asosan, eski usul maktablarining tugatilishi masalasiga katta e'tibor berilgan. Jumladan, hisobotda shunday deyilgan:

"Andijon okrugida eski usul maktablarini tugatish va hatto bu tizimni qisman qisqartirish katta muammo bo'lib ko'rinmoqda, negaki, ruhoniylar yig'ini uni o'zining maxsus himoyasiga olgan. Qizig'i shundaki, ruhoniylar yig'ini, umuman, ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida ham katta huquqlarga egadir. Eski usul maktablarini tugatish masalasi bilan hozirgi vaqtda Okrug (direktiv) tashkilotlari, Okrug xalq ta'limi bo'limlari shug'ullanmoqdalar. Maorif xalq komissarligining tegishli farmoyishi kelguniga qadar men yozgi mavsum davrida ko'rsatilgan maktablarni berkitish haqida taxminiy loyiha tuzdim va o'rtoq Nizomovga rayondagi o'z bo'limi oldida topshirdim. Men rayondan qaytishim oldidan Okrug ijroiya qo'mitasi o'zi-ning 21-sonli qarori bilan ushbu maktablarda yozgi ta'til vaqtida mashg'ulotlar to'xtatilganini bildim. SHunday qilib, bu maktablarda mashg'ulotlar vaqtincha to'xtatilgan. Eski usul maktablarining aksariyati shaharlarda joylashgan bo'lib, rayonlar-da-ular juda oz, har bir rayonda 3 - 4 ta maktab bo'lib, ayrimlarida (Asakada) umuman yo'q".¹

Vohidov o'z hisobotida eski usul maktablarini sovet maktablariga aylantirish to'g'risida quyidagi fikrlarni aytib o'tadi:

"Okrug xalq ta'limi bo'limi eski usul maktablarini tugatish va ularni sovet maktablariga aylantirish uchun faollik bilan tashviqot olib bormoqda. Rushnak madrasasi qoshidagi eski maktabni sovet maktabi usuliga o'tkazish uchun o'qituvchi Abduhamid Mahsumzoda birinchi bo'lib ariza berdi.

15 avgustdan boshlab Andijonda sovet maktablari holati-ni yaxshilash va eski usul maktablari bilan kurashishni kuchaytirish bo'yicha tadbir (kampaniya) o'tkazildi. Bu tadbirni o'tkazishda shaharning barcha muassasa va tashkilotlari ishtirok etdilar".

¹ Komilov O. O'zbekiston ta'limidagi o'zgarishlar (XX asr boshlari). T.: Akademyashr, 2010. 135-bet.

"O'tgan yili Andijon okrugida eski usul maktablari soni ko'pligi jihatidan birinchi o'rinda edi, shu bois bu masala barchani o'ziga tortdi. Ko'rilgan choralardan so'ng holat keskin o'zgardi. Masalan, agar o'tgan (1926) yili okrugda 410 ta eski usul maktabi, 39 ta madrasa, 17 qorixona (ulardagi o'quvchilarning umumiy soni 10191 kishi) bo'lgan bo'lsa, bu yil ulardan atigi 29 qorixona va 3 ta madrasa juda oz sonli o'quvchilar bilan qoldi, ammo bu bilan tinchlanib bo'lmaydi, hali okrug eski usul maktablaridan to'la tozalandi deyish mumkin emas. Negaki, ular ko'p hollarda yashirin ishlamoqdalar, shuning uchun ular bilan kurashni ham susaytirmay davom ettirish zarur", - deb ta'kidlangan ma'ruzada.

Inspektor o'z hisobotining yakunida eski usul maktablarini tugatishga doir quyidagi fikr va takliflarni berib o'tdi:

eski usul maktablari tizimi kengayishi ehtimolining oldini olish maqsadida Okrug xalq ta'limi bo'limiga ularning qayta ochilayotganlari uchun maxsus qoidalar ishlab chiqish tavsiya etilsin;

Ruhoniylar kengashi deb atalmish maktab bo'limini tugatishga erishish zaruriy holat deb topilsin;

1 oktyabrdan kechikmay Maorif xalq komissarligiga 15 avgustdan 1 sentyabrga qadar okrugda o'tkazilgan bolalarni sovet maktabiga jalb qilish va eski usul maktablarini tugatishning ikki haftaligi to'g'risidagi batafsil hisobot taqdim etilsin.

1928 yilga kelib Qashqadaryo viloyatida 154 nafar o'quvchini tashkil qilgan 11 ta, Surxondaryo viloyatida 121 o'quvchisi bo'lgan 17 ta eski usul maktabi mavjud edi. Ushbu o'quvchilarning 15 nafarini qizlar tashkil qilardi.

O'zbekiston SSR Maorif xalq komissarligi tashkiliy inspektorligi mudiri Nosirbekov 1928yil 3 yanvardan 8 yanvargacha Xorazm okrugidagi xalq maorifi bo'limi faoliyatini tek-shiradi. Tekshiruv Maorif xalq komissarligining 63-sonli buyrug'i asosida o'tkaziladi. Tekshirishlardan so'ng u quyidagilarni ta'kidlaydi: "Xorazmda eski usul maktablari yashashda davom etayapti, ammo u aholi o'rtasida o'z obro'sini to'laligicha yo'qotdi".

Markaziy Statistika boshqarmasining rejalashtirish maqsadida yig'ilgan taxminiy ma'lumotlariga ko'ra, 1926 - 1927 yillarda Xorazm okrugida 3894 ta o'quvchiga ega bo'lgan 464 ta eski usul maktabi mavjud edi. Nosirbekovning to'plagan ma'lumotlariga ko'ra, "eski usul maktablarining soni joriy yil davomida 75 foizga qisqargan. Masalan, o'rta asr maktabchili-gi va eskilik sarqitlari ta'sirida bo'lgan Xonqada o'tgan yili 907 ta o'quvchiga ega bo'lgan 95 maktab mavjud edi, joriy yilda esa 240 o'quvchiga ega bo'lgan 33 ta maktab qolgan.

Gurlanda 439 ta o'quvchiga ega bo'lgan 60 maktabdan 71 ta o'quvchiga ega bo'lgan 11 ta maktab qoldi. Boshqa rayonlardagi eski usul maktablari soni ham yanada ko'proq qisqardi. Ishonch bilan aytish mumkinki, eski usul maktablari o'zlarining oxirgi kunlarini yashamoqdalar, aholi uni unchalik qadrlamay qo'ygan. Eski usul maktablari orqali madaniy rivojlanib bo'lmaydi va odamlar o'z farzandlarini sovet maktablariga olib borib berishyapti". YUqoridagi mulohazalar shundan darak beradiki, mahalliy aholi sovet hukumatining tazyiqi ostida mavjud tu-zumga bo'ysunishga, hokimiyatning ma'muriy harakatlarini e'ti-rof etishga majbur bo'lganlar.¹

1928 yil 13-19 noyabrda O'zbekiston SSR MIQ Sovetlari-ning ikkinchi chaqiriq IV sessiyasi bo'lib o'tdi. Mazkur sessiya "Eski usul maktab va qorixonalarni tugatish to'g'risida"gi qarorni qabul qildi. Qarorga O'zbekiston SSR MIQ raisi Y.Oxunboboyev va O'zbekiston SSR MIQ kotibi Ibrohimovlar imzo chekkanlar. Qarorda to'g'ridan-to'g'ri shunday deb yozilgan:

Butun O'zbekiston SSRda bo'lgan eski usul maktablari yopilsin va kelgusida shunday maktablarni tashkil qilishga yo'l be-rilmasin. Ushbu qaror erkak va qizlar maktablariga nisbatan bir xil kuchda hisoblansin.

Eski usul maktablari shu qaror e'lon qilingandan keyin 10 kun muddat ichida yopilmagan taqdirda shu tipdagi maktab-lar ochilsa, bunday maktabni tashkil qiluvchi muallimlar, domlalar va tashkilotchilar jinoiy javobgarlikka tortilsin.

Diniy maktablar, shu jumladan, madrasalar va qorixonalar masalasida mavjud

¹ Komilov O. O'zbekiston ta'limidagi o'zgarishlar (XX asr boshlari). T.: Akademnashr, 2010. 145-bet.

maktablar va din o'qitish haqidagi qonun va buyruqlarni qat'iy suratda tatbiq qilib turish okrug ijroiya qo'mitalari zimmasiga yuklatilsin.

Barcha ijroiya qo'mitalari va xalq ta'limi bo'limlariga sovet maktablarida o'qishni davom ettirish sharoitini yaratish eski usul maktablarini tugatish choralari qat'iy qo'llash yo'li bilan amalga oshirish yuklatilsin.

Mazkur qarorga ko'ra, eski maktablarni ochgan shaxslar O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 158-moddasiga binoan 500 rublgacha jarima yoki 2 yilgacha ozodlikdan mahrum etilgan yoki bir yilgacha majburiy mehnatga jalb qilish bilan jazolangan. Qaror chiqqan davrdan boshlab O'zbekistonda 1200 ta eski usul maktablari tugatilgan. Barcha mahalliy ijroiya qo'mitalari va maorif idoralari berkitilgan eski maktablarning o'quvchilari-rining sovet maktablariga o'tishlarini ta'minlash choralari-ni ko'rishlari lozimligi ko'rsatilgandi. Qarorga ko'ra, 1328 yil-dan e'tiboran barcha eski maktablarda o'qish to'xtatilib, bu maktablarning yopib qo'yilishi belgilangandi.

YUqoridagilardan ko'rish mumkinki, eski usul maktablari XX asrning 20-yillarida ham faoliyat olib borganlar. O'z navbatida, sovet hukumati eski maktablar faoliyatiga qarshi doimiy ravishda kurash olib bordi. Sovet hukumati isloh qilingan maktablar faoliyati mavjud tuzum manfaatlariga zid ekanligini anglagan holda oradan bir yil vaqt o'tmasidanoq ularning dasturlariga birinchi bosqich yagona mehnat maktabi dasturini kiritdi. Aniqrog'i, 1924 yilda ular sovet maktablariga aylantirildi. Bu maktablarda esa diniy fanlarning o'qitilishi man qilindi. Yangi usul maktablarining yopilishi va sovet maktablarining ochilishi mahalliy aholining turli qatlamlarida norozilik uyg'otdi.

1925 yil boshlarida amalga oshirilgan islohot orqali eski maktablarning faoliyat olib borishiga hukumat rozilik berdi. 1925 yil dekabr oyiga kelib sovet hukumati ularni zo'rlik bilan yopish taraddudiga tushdi. SHu oyda Eski shahar ijroiya qo'mitasi tomonidan chiqarilgan qarbr ham eski maktablar faoliyatini cheklashga qaratilgandi. Unga ko'ra, 1926 yildan eski maktablarga Maorif bo'limlarining rozilgisiz o'quvchilarni to'plash taqiqpandi. Qarorni buzgan

shaxslar Jinoyat kodeksiga binoan javobgarlikka tortildilar, lekin bu bilan eski mak-tablar faoliyati tamomila to'xtab qolgani yo'q, chunki ushbu maktablar mahalliy aholi orasida asrlar davomida ma'rifat maskani sifatida nom qozongan, aholi ma'naviy ehtiyojlariga to'la mos tushardi.

1927 yilga kelib esa eski maktablarga nisbatan kurash yanada keskinlashdi. SHu yili Kommunistik partiyaning bo'lib o'tgan yanvar va iyun Plenumlarida ularni to'la holatda tugatish, isloh qilinganlarini esa yangi sovet maktabini tashkil etish orqali yo'qotish choralari ko'rildi. O'zbekiston SSR MIQ tomo-nidan eski maktablarni tugatish uchun mablag' ajratildi. Eng ko'p mablag'lar Andijon okrugiga ajratilgan. Sababi, okrugda boshqa joylarga qaraganda eski maktablar soni ko'proq bo'lgan.

1928 yil noyabrda esa O'zbekiston SSR MIQ tomondan chiqarilgan qarorga ko'ra, milliy maktablar faoliyati tamomila to'xtatib qo'yildi. Qaror e'lon qilingandan so'ng mingdan ortiq maktablar zo'rlik bilan yopildi. Bu maktablarning tugatilishi o'zbek xalqi madaniyati va ma'naviyatining rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

3. MADRASALARNING ISLOH QILINISHI VA ULARNING FAOLIYATI

Musulmon SHarqida ilm-fan va ma'rifat maskanlari bo'lmish madrasalar tarixi bir necha asrlar qa'riga borib taqaladi. Movarounnahr hududidagi ilk madrasa, tarixchi Nar-shaxiyning ma'lumotiga ko'ra, X asr boshlarida Buxoroda barpo etilgan Farayj madrasasi bo'lgan. Diniy va dunyoviy bilim-lar o'qitiladigan madrasalarda talabalar azaldan uch bosqichda tahsil olganlar:

1. Adno (boshlang'ich); 2. Avsat (o'rta); 3. A'lo (yuqori).

Madrasalarda islom falsafasi, arab tili grammatikasi, mantiq, astronomiya, falsafa, fiqh, adabiyot, tarix, tabobat fanlari o'qitilgan. Bundan tashqari, Abu Ali ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Sa'diy, Bedil, Navoiy, Fuzuliy kabi alloma va

mutafakkirlar asarlari ham o'rgatilgan.¹

Turkiston mahalliy aholisi savodxonligi va ma'naviy ehti-yojlari uchun zarur hisoblanmish madrasalar sovet hukmronligi davriga kelib turli tazyiq va cheklashlarga duchor bo'la bosh-ladi. 1918 yilning 23 yanvarida RSFSR XKS tomonidan e'lon qilingan "CHerkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish haqida"gi dekret ham madrasalarning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Barcha madrasalarda diniy fanlarning o'qitilishi taqiqlab qo'yildi. Dekret e'lon qilingandan keyin madrasalar va ulardagi o'quvchilarning soni ham kamayib bordi. Bir vaqtning o'zida madrasalar ustidan ikki komissarlik, ya'ni Millatlar xalq komissarligi va Maorif xalq komissarligi bevosita nazorat tartibini o'rnatdi.

1918 yildan Millatlar xalq komissarligi madrasalar fa-oliyatini bevosita nazorat qilishni boshladi. 1918 yil may oyidan avgustiga qadar Millatlar xalq komissarligining shu soha yuzasidan faoliyat ko'rsatish bo'yicha Nizomi ishlab chiqildi. Komissarlikda madaniy oqartuv bo'limi tashkil etildi. Madaniy-oqartuv bo'limi faoliyat dasturi va nizomi ishlab chiqilib, ilova qilinayotgan nusxalari Millatlar ishlari bo'yicha oblast komissarliklariga ijro uchun yuborildi. Oblast komissariatlaridan madrasalar soni, xizmatchi va o'quvchilar, vaqf mulklari, eski usul maktablari haqida ma'lumot berish talab etilgan. Mahalliy aholining savodsizligini tugatish uchun oblast komissarlariga eski usul maktablarida mullalarga (muallimlarga) tovushli o'qitish usuliga o'tishni hamda bu maq-sadda arab imlosidagi tasvirli alifbolarni, shuningdek, tovushli usul bo'yicha yangi darsliklarni olishni tavsiya etish bu-yurildi.

1918 yil 19 oktyabrda Turkiston millatlar ishi xalq komissari Ufadagi "Aliya" madrasasi mudiriga maktub yubordi. Maktubda, jumladan, shunday deyilgandi: "Turkiston o'lkasida madrasalarni tubdan qayta qurishga kirishishimiz kerakligini nazarda tutib, sizga ishonib topshirilgan "Aliya" madrasasi "Nizom" va dasturlarini yuborishingizni so'rayman".

1918 yil 21 noyabrda Turkiston Respublikasi Toshkent shahri millatlar ishi

¹ Komilov O. O'zbekiston ta'limidagi o'zgarishlar (XX asr boshlari). T.: Akademnashr, 2010. -bet.

xalq komissari vakiliga Xo'jand uyezdni mil-latlar ishi xalq komissari vakili o'z faoliyati bo'yicha quyidagicha fikrlarni bayon etadi: "Ma'lum qilamanki, menga ishonib topshirilgan komissarlik 1918 yil 16 iyulda ochilib, shundan buyon komissarlikda men tomondan quyidagilar hayotga tatbiq qilingan. Xo'jand uyezdida men tomondan 25 masjidida yangi mutavallilar saylandi, ularda bo'lim va xayriyalardan kelayotgan pul tushumlari butkul tartibsizlikda bo'lib, beboshlarcha talon-toroj qilinayotgan edi. Milliy markazlar ochildi, aynan: mahalliy aholi orasida yashovchi yahudiylar, polyaklar, armanlarning oz sonliligi sababli milliy markazlarga yozi-lishlar sust bo'lmoqda. Mening tomonimdan berkitib qo'yilgan madrasa va yangi maktablarni qayta ochishga erishildi. Tez fur-sat ichida Xo'jand uyezdida mudarris va o'qituvchilarning qaytadan imtihon qilinishi mo'ljallanmoqda".

Sovet hukumatining madrasalar vaqf mulklariga nisbatan salbiy munosabati o'lkada milliy ozodlik kurashi, qurolli qarshilik harakatining kuchayishini ta'minlagan sabablardan biri bo'ldi. 1922 yil bahoriga kelib Turkiston, Buxoro va Xo-razmda milliy ozodlik harakatining keng quloch yoyishi natijasida o'lkadagi siyosiy vaziyat nihoyatda keskinlashib ketdi.

Sovet hukumati o'lkada yuzaga kelgan siyosiy ahvoldan xavfsiragan holda uni tugatish choralarini qidira boshladi. SHu sababdan ham RKP (b) Markaziy Qo'mitasining 1922 yil 18 maydagi Plenumida "Turkiston - Buxoro ishlari haqida"gi qaror qabul qilindi. Unda vaqf yerlarini avvalgi egalari qayta-rish va madrasalar faoliyatiga ma'lum erkinlik berish masalasi ham ko'rib chiqildi.

RKP (b) MQ O'rta Osiyo byurosining 1922 yil 20 mayda bo'lib o'tgan Plenumi markaziy qo'mitaning ushbu qarorini amalga oshirish choratadbirlarini belgilab berdi. Plenum Turkis-ton, Buxoro, Xorazmdagi sovet va partiya rahbarlariga vaqflarni qaytarish, qozilik va biylik sudlari faoliyatiga ma'lum ma'noda ruxsat berish vazifasini yukladi.

Turkiston Respublikasi Sovetlari MIQning 1922 yil 20 iyunda "Turkiston Respublikasi madrasa va masjidlariga vaqflarni qaytarish haqida"gi 75-sonli

chiqargan dekretiga binoan vaqf mulklari o'z egalariga qaytarildi.

Turkiston Respublikasidagi uchta - Samarqand, Farg'ona va Sirdaryo viloyatlari madrasalarining vaqflari, vaqfnomalarga binoan, yer maydonlari ustidagi qurilmalari bilan qaytarib berildi. Madrasalar mulki bo'lgan savdo do'konlari, magazin, hammom, karvonsaroy, ombor, bog'lar, shahar chizig'i-dagi ekin maydonlari, yerlar o'z egalariga qaytarib berildi.

Bu mulklarni ishlatishdan kelayotgan daromadlar to'la-to'kis madrasa, masjid, ular qoshidagi maktablar binolarini ta'mirlash, shaxsiy tarkibni saqdash, madrasa va maktab xizmatchilari, mullavachchalar, madrasalar qoshidagi boshlang'ich maktablarning 3 yuqori sinfini ta'minlash, mullalarni tayyor-lashga va davlat solig'ini to'lashga sarflangan.¹

Mahalliy aholining vaqflar ta'minotidagi barcha maktab-lari shundayligicha vaqflar hisobi holatida qolavergan. Madrasa va vaqflar boshqaruvini tashkil etishda bir qator jihat-lar e'tiborga olindi. Madrasa va vaqflar boshqaruvini tartibga keltirish oktyabr voqealarigacha bo'lgan madrasalardagi tushunmovchilik va tartibsizliklarning oldini olish, madrasalar boshqaruvida saylash va saylanish hamda hay'at qaroriga asoslanadigan shakl joriy etish amalga oshirildi. Madrasa va vaqflarni boshqarish uchun har bir uyezd tarkibiga 5 ta saylangan shaxs va bittadan tayinlangan yo'riqchi kiritilib, jami 6 kishilik hay'at tashkil etildi.

Hay'at tarkibi 2 mudarris, 1 xalq sudyasi (qozi) va xalq maorifi bo'limi mudiri, xalq o'qituvchisidan iborat tartibda tuzilgan. Bunday hay'atlar Qo'qon, Andijon, Namangan, Eski Marg'ilon, Samarqand, Xo'jandda tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatgan. Hay'at tarkibiga kiritilgan diniy ulamolar, xalq sudyalari va musulmon maktablari o'qituvchilari uyezd umumiy yig'ilishida saylanib, MIQ tomonidan vazifalarga tayinlangan.

Madrasalar soni 40 tadan kam bo'lgan viloyatlarda bir necha uyezd hay'ati o'rniga yagona o'sha tarkibda viloyat hay'ati belgilangan. Toshkentda Sirdaryo viloyati hay'ati tuzilgan. Madrasalar soni 20 tadan oshmagan uyezdlarda hay'at

¹ O'zbekiston tarixi. (Murtazayeva tahriri ostida). Toshkent, 2005.

tarkibi mudarris, xalq sudyasi (qozi) va xalq o'qituvchisi, bir tayin-langan yo'riqchidan iborat bo'lgan. Bunday tarkibdagi hay'atlar O'sh, Kattaqo'rg'on, Jizzax shaharlarida ham mavjud bo'lgan.

Uyezd va uyezd huquqi berilgan rayonlardagi madrasa hay'atlariga quyidagi mas'uliyatli vazifalar yuklatilgan:

Vaqf mulyu1arini aniq belgilagan holda uyezd madrasalarini qayd etish (do'kon, hammom, karvonsaroy, bog'lar, ularning joylashuvi, miqdori va maydoni va uning belgilangan vazifasi, agar iloji bo'lsa, rejasi va oldingi yillardan qolgan qoldiqni vaqfning taxminiy daromadlarini belgilagan holda amalga oshirish);

- hay'at sinovidan o'tganligi asosida viloyat ijroiya qo'mitasi lavozimiga tasdiqlangandan so'ng har qaysi madrasaga mudarris tayinlash;

- barcha madrasalarda mudarrislar sonini belgilash;

- instruktor xulosasiga ko'ra madrasalar mudarris va boshqa mas'ul shaxslarni layoqatsizligi, qariganligi, chiqisha olmasligi yoki axloqsizligi uchun ishdan, xizmatdan bo'shatish;

- xizmatchilarga ishdan javob berish va o'rinbosarlar tayinlash;

- xizmat zaruratidan kelib chiqib mudarrislarni bir ishdan boshqasiga o'tkazish;

- madrasa ta'lim dasturlariga ilmiy asoslangan xususiyatlar kiritish bilan ishlab chiqish hamda mudarrislarga dars taqsimotini amalga oshirish;

- madrasalarda o'quv yili boshlanishi va tugashi vaqtini belgilash;

- aholining madaniy-ma'rifiy ehtiyojlariga vaqflar mablag'larining maqsadga muvofiq sarflanayotganini nazorat qilish va kuzatish.

Vaqflarni nazorat qilish uchun madrasalar har jihatdan joylarda instruktorlar tomonidan taftish (reviziya) etilgan, barcha madrasalarda o'tgan va kelasi yil uchun kirim va chiqim-lar bo'yicha taxminiy smetaga asosan har bir madrasaning byudjeti ko'rib chiqilgan.

Bu hujjatlar har bir madrasaning mudarrislari tomonidan 1 dekabr kunigacha hay'atga taqdim etiladigan hisobot-lar asosida tuzilgan. Instruktorlar tomonidan

berilgan xulosaga binoan ko'rilgan va tasdiqlangan umumiy smeta uyezd ijroiya qo'mitasi orqali oblast ijroiya qo'mitasiga yakuniy ruxsat olish uchun taqdim etilgan. Instruktor barcha vaqflar mablag'ining to'g'ri sarf-xarajat qilinishini nazorat etish vakolatiga ega bo'lgan.

Uyezd hay'ati majlislarida ishtirok etishdan tashqari, instruktorlar zimmasida shahar va uyezd madrasalarini bir oyda kamida 1 marotaba yo'l-yo'riqlardan o'tkazish, madrasalardagi turli tushunmovchiliklarni ajrim qilish, yillik mablag'lar hisobotini tuzish, viloyat ijroiya qo'mitasiga kirim-chiqim smetasini tasdiqlash uchun taqdim etish, uyezd madrasalaridagi o'quv-tarbiya ishlari holati haqida hisobot tayyorlash vazifalari kirgan. Instruktorlar Turkiston MIQning mahalliy bo'limlari tavsiyasi bilan ishga olingan va ishdan bo'shatilgan, o'sha ijroiya qo'mitalari mablag'idan maosh bilan ta'minlangan.

Madrasalar boshqaruvi quyidagi tartibda bo'lgan: madrasa mudirligi vazifasini katta mudarris bajargan va uyezd madrasalar hay'ati tomonidan ijroiya qo'mita tavsiyasiga ko'ra oblast ijroiya qo'mitasi tomonidan vazifaga tasdiqlagandan so'nggina tayinlangan. Katta mudarris madrasadagi o'quv-tarbiyaviy va xo'jalik ishlarining yo'lga qo'yilishiga javobgar shaxs hisbblangan. Madrasa kengashi tarkibi barcha mudarris, mukarrir, mutavalli, boshlang'ich maktab mudiri, katta kurs talabalaridan saylangan ikki mulla-talabadan iborat holda tashkil etilgan. Uning a'zolari hal qiluvchi ovozga ega bo'lgan. Yig'ilishlarda ana shunday huquqlar bilan uyezd instruktorlari ham ishtirok etishgan. Xo'jalik komissiyasi tarkibi katta mudarris, mutavalli va saylangan bir talabadan iborat bo'lgan.

Madrasa mutavallisi vazifasiga yoshi 30 dan kam bo'lmagan, jamoa ishonchiga sazovor bo'lgan shaxs saylangan, uni lavozimga madrasalar uyezd komissiyasi tavsiyasi bilan tegishli sovet ijroiya qo'mitasi tasdiqlagan. Katta vaqflari bo'lgan madrasalarda ham shu tartibda mutavalli yordamchilari saylangan. Mutavalli vazifalariga, asosan, kirim-chiqim hisobini olib borish, moliya hisobotini tuzish, vaqf mablag'larini yig'ish va saqlash, tasdiqlangan smetaga ko'ra madrasa

hay'ati ruxsati bilan mablag'ni sarflash, madrasa va binolar hamda boshqa vaqf mulklarining ta'mirlanishini bevosita nazorat qilish, davlat soliqlarini o'z vaqtida to'lab borish, yer maydonlari va bog'lardan yig'ilgan mah-sulotlarni madrasa xizmatchi va o'quvchilari ehtiyojiga foydalanish uchun saqlash, madrasa kengashi ruxsati bilan mulklarni ija-raga berish shartlarini va shartnomalarini tuzish kirgan.

Madrasaning barcha xizmatchilari belgilangan (stavka) miq-dorda har oy vaqf mablag'idan xizmat haqi, maosh olganiga imzo chekishi shart bo'lgan. Mullavachchalarning (talaba) barchasi, uqish bosqichi qanday bo'lishidan qat'i nazar, barchaga bir xil taqsimlanadigan nafaqa (stipendiya) hisobidan umumiy qozondan oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta'minlanganlar, faqat nafaqaning (stipendiya) qoldig'i qo'llariga naqd berilgan.

"Turkiston Respublikasi madrasa va masjidlariga vaqflarni qaytarish haqida"gi dekretga muvofiq Adliya xalq komissarligiga bir hafta muddat ichida yo'riqnoma ishlab chiqish va Tur-kiston MIQning tasdig'iga topshirish tavsiya etilgan.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, Turkiston Respublika-sining uch viloyatida (Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand) eski usul madrasalari 300 ta bo'lishi kerak edi, ammo vaqf bo'limlarining faoliyat boshlaganiga oz fursat bo'lganligi sababli ularning aksariyat qismi hisobga olinmagan.

1923 yildan Turkistondagi barcha eski maktablar qatori mad-rasalarining ham isloh qilinishi boshlangan. Buning uchun dastur ishlab chiqilgan. U "Diniy maktablarni (maktab va madra-salarni) qayta tashkil etishning qisqa loyihasi va shu maktab-larning 1923-1924 o'quv yili uchun dasturi" deb nomlangan. Uning ikkinchi bo'limi "Madrasalar islohoti" deb nomlangan. Ushbu dastur asosida 1923 yil 1 sentyabrdan Turkiston ASSR-dagi madrasalar isloh qilingan. Uning natijalarini jadvaldan bilib olishimiz mumkin.

Turkiston ASSRda isloh qilingan madrasalar va ularning soni (1923.1.IX)

Hudud	Hisobga olingan	Ulardan qayta qurilgan	Talabalar soni	Amalda o'qiydi
Sirdaryo viloyati	22	6	^g 75	193
Samarqand viloyati	58	7	410	360
Farg'ona viloyati	118	8	520	370
Jami	198	21	1305	873

Ta'kidlash joizki, bu jadvaldagi raqamlar real holatni aks ettirmaydi. Turkistondagi madrasalar soni esa bundan ham ortiqroq bo'lganligi haqiqatga yaqinroqdir;

Bosh vaqf boshqarmasi madrasalar islohotlariga juda hushyorlik va ehtiyotkorlik bilan yondashishni maqsad qilgan. Ayniqsa, Samarqand, Qo'qon hududlarida islohotlarning ehtiyotkorlik bilan olib borilishi ko'zda tutilgan va uning tadrijiy islohot bosqichlari aniq belgilab berilgan.

Islohotlarda dastlab mavjud madrasalarni hisobga olish va tekshirish, o'quvchilarning ijtimoiy holati, bilimi, yoshi, ularning o'qishga munosabatini aniqlash asosiy vazifa qilib qo'yilgan. Bundan tashqari, o'qituvchilar tarkibi va malakasini belgilash ham islohotning asosiy bosqichlaridan biri hisoblangan. Madrasalarda mavjud binolarni o'quvchilar va stipendiatlar uchun yashash joylariga moslashtirish, yangi sinf xonalari va auditoriyalar qurish, mavjud binolarning talab darajasida emasligi, nosozligi islohotlar o'tkazishning paysalga solinib, bu qadar cho'zilib ketishiga asosiy sabab bo'lgan.

Madrasalarni to'qqiz yillik ta'lim tizimiga moslashtirish uchun o'qish muddatini 20 yildan 9 yilga kamaytirish, ta'lim tizimini 3 yildan uch bosqichga taqsimlash, birinchi bosqichni sovet maktabining 5 yillik ta'lim tizimiga moslashtirish, ikkinchi bosqichni yetti yillikka moslashtirish, uchinchi bosqichni to'qqiz yillikka moslashtirish masalasi ishlab chiqilgan.¹

Birinchi bosqichga 20 yoshdan katta bo'lmagan ravon o'qish va yozishni biladigan shaxslar qabul qilingan. Ta'limning birinchi yilida sovet maktabining

¹ Komilov O. O'zbekiston ta'limidagi o'zgarishlar (XX asr boshlari). T.: Akademnashr, 2010. -bet.

birinchi va ikkinchi o'quv yili to'la kursi o'tib bo'lganligi va qisman uchinchi yil kursi ham qo'shib o'qitilgani, qolgan ikki yil davomida esa besh yillik ta'lim tizimining qolgan kurslari o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan.

Ikkinchi bosqich yetti yillik maktab tizimiga to'g'ri kelgan. 5 yillik kurs bilimlariga ega bo'lgan, yoshi 25 dan oshmaganlar madrasaga qabul qilinganlar.

Uchinchi bosqichda to'qqiz yillik to'la kursni o'zlashtirgan bo'lishi, 30 yoshdan oshmagan va yetti yillik to'la kurslar bilimini egallagan nomzodlar qabul qilingan.

Yuqoridagi bosqichlar faqat o'qituvchi va o'quvchilarning yetarli darajada tayyorgarliklari mavjud bo'lgan taqdirdagina ochilgan. Madrasalardagi har bir ta'lim bosqichida sovet maktabi o'quv kurslarini o'zlashtirishdan tashqari, arab va fors tillarida dars berishning yangi usullarini qat'iy o'zlashtirish talab qilingan.

Har bir bosqichning o'quv kurslari bu qadar cho'zilib ketganini o'qish vaqtining uchdan bir qismi yuqorida keltirilgan til-larni hamda diniy-huquqiy fanlarni: Fiqh (Musulmon huquqi), Tafsir (Qur'on tarjimasi va tahlili) va Hadis (Muhammad payg'ambarning sunnatlari)ni o'rganishga ajratilgani bilan izohlash mumkin. Nomlari keltirilgan fanlarni o'qitish usul-lari va yo'nalishi imkon qadar davr talablariga javob berishiga uringanlar.

Farg'ona va Samarqand viloyatlaridagi barcha madrasalarning 40 foizini 1923-1924 o'quv yilida qayta qurish ko'zlangan, lekin qayta qurishlar madrasa va maktablarning binolari za-monaviy maktab tusida ta'mirlash ishlari tugallanmaganligi oqibatida to'xtab qolgan.

Bosh vaqf boshqarmasi tomonidan Toshkent shahar vaqf bo'limi tomonidan 5 ta madrasa, 6 ta maktab yangi usul dasturiga o'tkazildi. Samarqand shahar vaqf bo'limida 440 o'quvchisi bo'lgan 14 ta maktab, Xo'jand shahar vaqf bo'limida 1280 nafar o'quvchisi bo'lgan 32 ta maktab, Kattaqo'rg'on vaqf bo'limida 110 o'quvchisi bo'lgan 3 ta maktab mavjud bo'lgan. Jami 2580 tinglovchiga ega bo'lgan 60 ta yangi usul maktablari ro'yxatga olingan.

Xonliklar o'rnida tashkil etilgan yangi sovet respublikalari, jumladan,

Xorazm Xalq Sovet Respublikasida ham sovetlar hukmronligi yillarida vaqf mulklari va ularni tashkil etishda bir qancha qiyinchiliklar mavjud bo'lgan. Vaqf bo'limi eski usul maktab va madrasalarini yangi usul maktablariga asta-sekin o'tkazish tashabbusini olgan. Xorazmdagi diniy maktablar va ularga tegishli vaqf mulklari¹ning 1922 yildagi miqdori jadvalda aks ettirilgan.

Keltirilgan mulklar madaniy-ma'rifiy vaqflarga tegishli bo'lgan. Xorazm vaqflar bo'limi vakillarining ma'lumotiga ko'ra, bino holatidagi diniy vaqflarga tegishli mulklar juda oz qismni tashkil etib, aksariyatini madaniy-ma'rifiy vaqflarga tegishli mulklar tashkil etgan.

XXSRdagi diniy maktablar va ularga tegishli vaqf mulklari (1922 yil)¹

Rayon, qishloq, ovul nomlari	Madrasa bino-lari	Qori-xonalar	Qabris-tonlar	Savdo Do'kon-lari	Karvon saroy-lar	Hammom-lar	Bozor maydon-lari
Xiva uyezdi	64	122	78	1330	5	3	4
Urganch va Gurlan	39	37	70	1566	9	-	5
Jami	103	159	148	2896	14	3	9

Xorazmda ham 1923 yildan boshlab barcha madrasalar isloh qilindi va ular yangi usul madrasalariga aylantirildi. Ana shunday yangi usul madrasalaridan biri Abdulg'ozzi Muarrix nomidagi sobiq Muhammad Amin madrasasi edi. Madrasa vaqflar bo'limi tashabbusi bilan 1925 yil 1 yanvardan qayta tuzilgandi. Madarasada 91 talaba (mullavachcha) o'qitilib, Xivadagi boshqa madrasalarga nisbatan yaxshi jihozlangan, unda yevropacha usuldagi isitish pechi bo'lib, yashash uchun sharoit nisbatan yaxshi edi. Har bir talabani o'qitish uchun 15 rubl sarflangan. O'qituvchilar 2-bosqich miqdorida oylik olganlar. Madrasalar isloh qilingandan so'ng ularning o'quv mashg'ulotlari matematika, ona tili, jo'g'rofiya, umumiy tarix, tabiatshunoslik fanlaridan iborat bo'lgan.

Birinchi bosqich maktablari, ya'ni eski usul maktablari o'quv jarayoniga mantiq, fiqh, arab tili xat-savodi, arab sintaksisi kabi fanlar kiritilgan.

Abdulg'ozzi Muarrix madrasasini tashkil etishdan ko'zlangan maqsad diniy

¹ Komilov O. O'zbekiston ta'limidagi o'zgarishlar (XX asr boshlari). T.: Akademnashr, 2010. -bet.

yo'nalishdagi, eski usul tizimida o'qitish ta'sirini susaytirishg'a harakat qilish bo'lgan. SHu maqsadda yangi fanlar qatori eski diniy ta'limning bir qismi qoldirilib, eski madrasadan sovet maktablariga o'tish uchun yana bir pog'o-nani vujudga keltirish nazarda tutilgandi.

Hammasi bo'lib Xorazm oblastida 10 ta birinchi bosqich maktablari mavjud edi. O'quvchilar soni 1157 nafar bo'lgan. Ulardan 11 ta maktab davlat byudjeti ta'minotida, qolganlari Vaqflar boshqarmasi ta'minotida bo'lgan.

Oblastda qaytadan tashkil qilingan madrasalar va maktab-lardan:

- qayta qurilgan madrasalar (ijtimoiy tarbiya dasturi aso-sida I - II bosqichli) 4 ta, ulardan biri faoliyat olib borgan, tinglovchilar soni 125 ta bo'lgan. 1 avgustdan boshlab qolgan 3 ta madrasani 350 o'rinli internat bilan ishga tushirish belgilangan.

- qayta qurilgan maktablar (I bosqich maktab dasturi asosi-da) 15 ta bo'lgan.

Vaqflar bo'limi qoshida diniy bo'linmalar tuzilgan bo'lib, ularning vakolatlariga diniy vaqflar, ya'ni daro-madlari masjid va ularning xizmatchilarini ta'minlashga qaratilgan vaqflarni boshqarish yuklatilgan. Qolgan vaqf-lar mulklaridan keladigan daromadlar madaniy-ma'rifiy maqsadlar va vaqf bo'limining xarajatlariga sarflangan. YUqorida keltirilgan mablag'lar hisobidan 50 kishilik mu-siqa maktabi, 50 kishilik pedagogika texnikumi, 100 kishiga mo'ljallangan yangi usul madrasasi va Xivada bir maktab ta'-minlangan. Bundan tashqari, komissiya kotibining talabiga ko'ra Xiva uyezdida 6 ta qishloq maktabi, Urganch uyezdida 5 ta, Gurlan uyezdida 5 ta, Xiva uyezdi bo'yicha 4 qishloqda, Urganch uyezdining 4 qishlog'ida, Gurlan uyezdining 6 ta qishlog'ida savodsizlikni tugatish kurslarini ta'minlashni o'z zimmala-riga olganlar, shuningdek, yana Urganchda 2 ta, Gurlanda 1 na-far ayollar savodsizligini tugatish maxsus kurslari ham bo'lgan. Xorazm viloyatida 2-bosqich^maktablari yo'q bo'lib, hatto birinchi bosqich maktablarida kurslar 2-, 3-sinf da-rajasiga ham yetkazilmagan.

YAngi usul maktablarining soni juda ozchilikni tashkil qilib, eski usul maktablarining soni 800 ga yaqin bo'lgan. Ularning ko'pligi kishi e'tiborini

tortadi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasidagi yalpi daromad 1921 yildan 1924 yilgacha bo'lgan davrda 175507 oltin rubl miqdo-rini tashkil qilgan. Ularning hisobidan sarf-xarajatlar quyidagi tarzda taqsimlangan:

380 nafar o'quvchisi bo'lgan 6 ta diniy madrasalar ta'mi-noti, xususan, Ko'kaldosh, Tursun-Dajak, Govkushon, Murg'ob, De-vonbegi va Juy-Jarlarga va 15 ta mudarrisga maosh to'langan;

Mahkamai-SHar'iya diniy boshqarma 8 ta shtat birligini saqlash uchun maosh ajratilgan;

Xo'ja Parso madrasasida, Doril Tajavotning 38 o'quvchiga mo'ljallangan diniy maktabida 1 mudarris, 1 texnik xizmatchi xizmat qilgan va u yerdagi o'quvchilarga vaqflar mablag'idan pe-shin va tushlik berilgan;

Ismani Xo'ja madrasasidagi Doril Gajizin - Qur'onni o'rganayotgan 60 qorixonaga har biriga oyida 10 rubl miqdori-da vaqflar hisobidan nafaqa berib borilgan;

- 105 ta erki usul maktablarini qisman ta'minlash uchun; bo'lim apparatini ta'minlash uchun;

- diniy vaqflar hisobidan nafaqalar berib borish uchun imomlarga - 220 kishi, muazzinlikka - 231 kishi, xatiblarga -97 kishi, qorilikka - 700 kishi, mutavallilikka - 400 kishi, masnaviyxonlikka - 15 kishi, mudarrislikka - 45 kishi tayin-langan. Bu shaxslarga bir oyda 9000 rublgacha mablag' sarflan-gan;

131 madrasaning binolarini qisman ta'mirlash uchun mab-lag'lar sarf etilgan.

1924 yilning boshidan BXSR Bosh vaqf boshqarmasi eski tar-kibi almashtirilib, vaqflar masalasidagi ishlar ko'proq so-vet tartibiga moslashtirila boshlandi. Vaqf mulklarini to-pish va ularni hisobga rlish choralari ko'rildi, mulklarni ish-latishning tegishli tartibi o'rnatildi. Vaqflar haqida vaqtli Nizom va mulklarni ishlatish tartibi ishlab chiqildi. Ma'ri-fiy ishlarga mablag'ning katta qismi ajratildi. Vaqf idora-lari hodimlari apparatini 50 foizga qisqartirish amalga oshirilib, eng yaxshi xodimlarni tanlash yo'li bilan shaxsiy tarkib xodimlari sifati

ancha yaxshilandi.

Bosh vaqf boshqarmasi madaniy-ma'rifiy qurilish sohasi-da mustaqil tadbir olib borgan, vaqflar mablag'i hisobida turgan barcha maktablardagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat xalq ta'limi inspeksiyasi nazoratida bo'ldi, vaqflarning asosiy va-zifasi etib faqat maktablarni mablag' va anjomlar bilan ta'minlash belgilandi. Har qanday yangi maktab va boshqa ma'ri-fiy kurslarni ochish Bosh vaqf boshqarmasining faoliyati doi-rasida amalga oshirildi. Bu boradagi ishldr. mahalliy xalq ta'limi qo'mitalari va ularning bosh boshqarmasi to'la roziligi bilan amalga oshiriladigan bo'ldi. Bundan tashqari, sobiq Buxoro Respublikasi hududida yangi usul dasturi asosida tash-kil qilingan 1200 o'quvchisi bo'lgan 60 ta maktab va 400 talabasi bo'lgan 10 ta madrasani yangi o'quv yili boshlanishi oldidan Maorif xalq komissarligining 1- va 2-bosqich dasturlariga o'tkazish mo'ljallandi.

Zarafshon oblasti vaqf bo'limi ma'lumotlariga qaragan-da, 1922 yil madrasalarni qayta qurish maqsadida Eski Buxo-roning Labi hovuzdagi Ko'kaldosh madrasasi ta'mirlangan, madrasaning hovlisida maktab uchun 4 xonali yangi bino quril-gan, bu yerda vaqflar hisobida o'rta maktab joylashgan. Bu mak-tabda 75 nafar o'quvchi bo'lib, ulardan 25 tasi dehqon-inter-natchilari bo'lgan. Ularga madrasada ta'mirlangan bir necha alohida hujralar yotoqxona uchun ajratilgan. 1923 yil o'quv mavsumida maktab o'quvchilarining soni 100 tagacha yetkazilishi rejalashtirilgan.¹

Ko'kaldosh madrasasi O'zkomstaris hisobida turgan, uning qabul komissiyasi madrasa binosini mehmonxona sifatida ijaraga bermoqchi bo'lib, madrasani bo'shatishni talab qil-gan. Komissiya madrasaning barcha kirish va chiqish eshiklari-ni muhrlab qo'ygan. Ko'kaldosh madrasasi binosida maktab-larni qoldirishni, internatchilar uchun hech qanday ijara to'lovisiz, yotoqxona uchun bir necha xona berishni so'rab muro-jaat etgan.

Turkiston ASSRda 1923 yilda isloh qilingan Bosh vaqf bosh-qarmasi ixtiyorida bo'lgan yangi usul madrasalarining soni 30 dekabrda holatga ko'ra

¹ Komilov O. O'zbekiston ta'limidagi o'zgarishlar (XX asr boshlari). T.: Akademnashr, 2010. -bet.

jadvalda qo'rsatilgan. Ushbu jad-valdan ham ko'rish mumkinki, islohotlar o'tkazilgandan keyin-gi dastlabki davrda ham madrasalar soni anchagina ko'p bo'lgan.

Vaqf organlari 1924 yildan madrasalarga zo'rlik bilan sovet maktabi dasturini kiritishni boshladi. 1924 yil vaqf bo'lim-lari tomonidan ro'yxatga olingan 212 madrasa va 191 ta mak-tabdan, 738 nafar talabasi bo'lgan 10 ta madrasa va 3080 na-far o'quvchidan iborat 41 ta maktab sovet maktabiga aylanti-rildi. Mazkur muassasalar yopilib, uning binolari yangi sovet maktablariga moslashtirib qayta qurilgan.

Turkiston ASSRda madrasalarning soni (1923 yil)

	BVB bo'limlari	Madrasalar soni	Talabalar soni	Mudarrislar soni
	Toshkent shahar bo'limi	18	250	31
	Qo'qon bo'limi	28	100	18
	Marg'ilon bo'limi	33	100	10
	Namangan bo'limi	32	195	17
	Andijon bo'limi	36	100	14
	Samarqand bo'limi	19	-	14
	Xo'jand bo'limi	46	100	10
Jami		212	845	114

1924 yil 1 fevraldan boshlab yangi usul vaqf maktablarini sovetlashtirishga kirishilgan. O'sha yili 1 aprelga qadar yangi usul tizimidagi birorta ham maktab qolmagan. Barcha maktab-lar tizimi yagona mehnat maktablariga aylantirilgan, diniy darslar amalda tugatilgan.

Xulosa tarzida ta'kidlash joizki, Turkiston ASSRdagi mad-rasalar 1923 yildan boshlab sovet hukumati tomonidan isloh qilindi. Ularning dasturlariga hukumat tomonidan tegishli o'zgartirishlar kiritildi. Madrasalarda diniy va dunyoviy fanlarning birgalikda o'qitilishi ko'zda tutildi. Islohotlar dasturiga ko'ra, madrasalarning mavjud binolarini talaba-lar uchun yotoqxonalarga aylantirish

mo'ljallangandi. Madrasalarning to'qqiz yillik shakli ham isloh qilindi. Ulardagi o'quv jarayoni uchta uch yillik bosqichga bo'lindi, ya'ni birinchi bosqichda sovet maktabining besh yillik ta'limiga, ikkinchi bosqich yetti yillikka, uchinchi bosqich to'qqiz yillik ta'limga moslashtirildi. SHu tartibda madrasa o'quv tizimi asta-sekinlik bilan isloh qilinib, keyinchalik ularni sovetlashtirish jarayoni boshlandi.

Sovet hukumati tomonidan boshlangan mazkur islohotlar XX asrning 20-yillari boshidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat tahli li sifatida yuzaga kelgan bo'lib, tabiiyki, ular vaqtinchalik xarakterga ega edi. Madrasalar ta'minotining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, mablag' yetishmovchiligi, imoratlarning ta'mir-ga muhtojligi va boshqalar madrasa hayoti taraqqiyotiga jiddiy g'ov bo'lib turar, hukumat esa bu holatni o'nglashga harakat qilmasdi. SHu tariqa madrasalar hayoti jamiyat hayotidan uzoqlasha bordi. Bu esa aynan sovet hukumati ko'zlagan strategik maqsadlarga to'la mos tushardi.

XULOSA

Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olganidan so'ng o'lka hayotining barcha sohalarida mustamlakachilik tartibini o'rnat-di. Jumladan, mustamlakachi ma'muriyat o'lkada mavjud bo'lgan madrasa va mahalliy diniy maktablar faoliyatini cheklab, ular ustidan doimiy nazorat yuritish siyosatini olib bordi. O'lkada faoliyat yuritgan barcha general-gubernatorlar mahal-liy aholi ijtimoiy-ma'naviy turmush tarzini ruslashtirish siyosatiga urg'u berdilar. Ruslashtirish siyosati ta'lim soha-siga ham taalluqli edi, albatta. Biroq fevral inqilobi o'lka ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotining barcha sohalarida ma'lum o'zgarishlar boshlanishiga turtki berdi. Inqilobdan so'ng madrasa, eski maktablar ham o'zlarining erkin faoliyatini olib bordilar. O'lkadagi madrasa, maktablar soni oshib bordi, biroq oktyabr to'ntarishidan so'ng hokimiyat tepasiga kelgan bol-sheviklar madrasa va maktablar faoliyatini cheklash siyosati-ni yuritdi.

Sovet hokimiyati o'rnatilgach, milliy maktab va madrasalar-ning vaqf mulklarini ekspropriatsuya qilish maqsadida doimiy ravishda kurash olib borildi. Jumladan, RSFSR hukumatining "Er to'g'risida"gi dekretiga asosan barcha yerlar, xususan, vaqf yerlari ham davlat mulkiga aylantirildi. RSFSR XKS tomdni-dan chiqarilgan "CHerkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to'g'risida"gi dekretga asosan milliy maorif maskan-larida diniy fanlarning o'qitilishi cheklab qo'yildi. Dekret chiqarilgandan keyin maktab, madrasalar va ulardagi o'quvchi-lar soni ham keskin kamaydi. Vaqf mulklarining ekspropria-siya qilinishi, maktab va madrasalar faoliyatining cheklab qo'yi-lishi mahalliy aholining jiddiy noroziligiga sabab bo'ldi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida islom dini mu-assasalari davlat tomonidan turli huquq va imtiyozlardan mahrum qilindi. SHu sababli ham musulmon ruhoniylari sovet hukumatiga qarshi olib borilgan g'oyaviy targ'ibot ishlarida aso-siy diqqat-e'tiborini madrasa va maktablarni ochish masala-siga qaratdi. Ular hukumatdan madrasa, maktablardan tortib olingan vaqf mulklarini

qaytarish va ushbu masalani hal etib berishni qattiq talab qildilar.

XX asr 20-yillari boshlaridan keng quloch yozgan qurolli qar-shilik harakatiga musulmon ruhoniylari ham xayrixohlik bil-dirdilar. O'lkadagi murakkab vaziyatni o'rganib chiqqan sovet hukumati NEP siyosati mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda 1922 yilning may oyida "Turkiston - Buxoro ishlari to'g'risi-da" maxsus qaror qabul qildi. Unda Turkiston, Buxoro va Xiva-dagi qurolli qarshilik harakatini tugatish chora-tadbirlari bilan bir qatorda vaqf yerlarini ilgarigi egalariga qaytarish lozimligi ko'rsatib o'tildi. Mazkur ko'rsatmalar asosida Tur-kiston MIQ "Turkiston Respublikasi madrasa va masjid-lari-ga vaqflarni qaytarish haqida"gi dekretni imzoladi. Unga aso-san Turkistonning uchala oblasti, xususan, Samarqand, Farg'o-na, Sirdaryo hududlaridagi barcha vaqf yerlari avvalgi egala-riga qaytarib berildi. Dekretning imzolanishi mahalliy ma-orif hamda musulmon ruhoniylari hayotida katta ahamiyatga ega bo'ldi, biroq oradan bir oz vaqt o'tgach, sovet hukumati ular-ning faoliyatini yana qayta ko'rib chiqish jarayonini boshladi. 1922 yil dekabr oyidan vaqflarni boshqarish tartibi o'zgar-tirildi. Vaqflarni boshqarish Maorif xalq komissarligi ix-tiyoriga o'tkazildi. Komissarlik tez orada milliy maktab va madrasalar ustidan tegishli nazoratni o'rnatdi.

1923 yildan eski maktab va madrayealar Maorif xalq ko-missarligining Bosh vaqf boshqarmasi tomonidan isloh qili-nib, ularning dasturlariga dunyoviy fanlar ham kiritildi. Maktab, madrasalarni isloh qilish va yangi usul maktablariga aylantirish dasturini Bosh vaqf boshqarmasining akademik bo'limi mudiri, jadidchilik harakatining yorqin arbobi Mu-navvar Qori Abdurashidxonov ishlab chiqdi. O'tkazilgan islo-hotlarga binoan barcha eski maktab, madrasalar yangi usul mak-tab va madrasalariga aylantirildi, biroq islohotlar jarayo-ni uzoqqa cho'zilmadi, 1924 yildan ular yagrna mehnat maktabla-riga aйлantirildi. Bu esa ushbu.ma1aablarn^;.-.sovetlashtirish jarayoni boshlanganligidan dalolat berardi. Maktablar bi-rinchi bosqich, madrasalar esa ikkinchi bosqich sovet maktabla-riga aylantirildi. Mazkur maktablarda diniy fanlarning o'qitilishi taqiqlab qo'yildi.

Turkiston musulmon aholisi milliy maktab, madrasalar-ning sovetlashtirilishi jarayoniga qarshi bo'ldilar. SHuning uchun ham yangi usul maktablarining yopilishi va sovet maktab-larining ochilishi aholida qattiq norozilik tug'dirdi. Bu chora-tadbirlar ma'muriy zo'ravonlik uslubi asosida olib boril-di. Eski maktab va madrasalarni isloh qilish jarayoni ko'plab muammolarni keltirib chiqardi.

1925 yildan boshlab respublikadagi ko'plab madrasa, mak-tablarning zo'rlik bilan yopib qo'yilishi jiddiy noroziliklar-ga sabab bo'ldi. Ular yopib qo'yilgach, ulamolar, shuningdeq, ting-lovchilarning ota-onalaridan bu maskanlarni qaytadan ochib berish to'g'risida hukumat tashkilotlariga ko'plab ariza va shi-koyatlar tushdi. Davlat organlari tomonidan bu shikoyatlar ino-batga olinmadi va hech qanday choralar ko'rilmadi. Bu voqea hokimiyat organlarining mahalliy aholi xohish-irodasi bilan hisoblashmaganligini isbotlaydi.

1927 yil iyunida bo'lib o'tgan O'zbekiston KP (b) MQ VI plenu-mida qabul qilingan "Ruhoniylar va maktab to'g'risida"gi qaror eski maktablar faoliyatiga butkul chek qo'yilishini alohida ta'-kidladi. Din, diniy muassasa va maktablarga 20-yillar bi-rinchi yarmidagi ma'lum erkinlik hamda yon berish partiyaning o'ziga xos "taktik usuli" ekanligi oyDinlashib qoldi.

O'zbekiston SSR MIQ Sovetlari 1928 yil 18 noyabrda "Eski usul maktab va madrasalarni tuga-tish to'g'risida"gi qarorni chiqardi. Ushbu qarorga asosan barcha diniy maktablarning yopilishi ko'zda tutildi. SHunday turdagi maktablarni tashkil qiluvchi muallimlar, domlalar sovet qonun-lari asosida javobgarlikka tortilishi nazarda tutilgandi. Qarorga muvofiq barcha diniy maktablar tugatildi. Bu holat esa o'zbek xalqi milliy maorif tizimiga salbiy ta'sir ko'rsat-di, mahalliy aholida norozilik kayfiyatini uyg'otdi.

XX asrning 20-yillari oxirlariga kelib respublikada eski maktab va madrasalarning tugatilishiga doir keskin choralar ko'rildi. Ularning faoliyati qattiq qoralanib, "eskilik sar-qitlari" sifatida baholandi. O'zbekistonda sovet hukumati-ning tazyiqi bilan eski usul maktablarining isloh qilinishi-ga yo'l qo'ymaslik, isloh qilinganlarini esa yangi sovet maktab-larini ochish orqali yo'qotish choralari ko'rildi. Respublika hukumati ko'rsatmasi bilan mavjud eski maktablarni tugatish chora-tadbirlari kuchaytirildi, chunki aynan xuddi

shu davrda ko'plab eski maktablar, qorixonalar, madrasalar faoliyat olib bormoqda edi.

20-yillarda O'zbekiston milliy maorif tizimi faoliyati-dagi o'zgarishlar, asosan, sovet hukumati siyosati strategik maqsadlariga asoslangandi. Sovet tuzumining dastlabki o'n yil-ligidagi murakkab sharoitda ham madrasa, maktablar har qan-day cheklash hamda ta'qib, tazyiqlarga qaramay, o'z faoliyatini davom ettirdilar. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, sovet hbkimiyati hukmronligining dastlabki yillarida jadid ma'-rifatparvarlarining sa'y-harakatlari tufayli ko'plab ma'-rifat maskanlari ochildi, o'z navbatida, bunday maskanlar-dan ko'plab ziyoli shaxslar yetishib chiqdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOT RO'YXATI

1. Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. — T.: O'zbekiston, 1996. — 364 b.
2. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2. — T.: O'zbekiston, 1996. - 382 b.
3. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. — T.: O'zbekiston, 1996. - 366 b.
4. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. - T.: O'zbekiston, 1999. - 410 b.
5. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. T. 8. — T.: O'zbekiston, — 528 b.
6. Karimov I. A. Biz tanlagan yo'l — demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T. 11. - T.: O'zbekiston, 2003. - 320 b.
7. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudrati-mizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.12. -Toshkent: O'zbekiston, 2004.
8. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. - Toshkent: O'zbekiston, 2005.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
10. O'zbekiston Respublikasi: qonun va farmonlar. - Toshkent: O'zbekiston, 1996, 1997, 1998, 1999, 2000, 2001, 2002, 2003, 2004, 2005, 2006, 2007, 2008.
11. Abdullayev Y. Eski maktabda xat-savod o'rgatish. - Toshkent: O'rta va oliy maktab, 1960.
12. Alimov I.A. Eski maktab islohoti tashabbuskori // Xalq ta'limi. - Toshkent, 1993. №10 - 12.
13. Alimov I.A. O'zbekistonda vaqf mulklarining tugatilishi (1917 - 1929

yillar). - Toshkent: Fan, 2009.

14. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqi-yot uchun kurash (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chiz-gilar). Davriy to'plam. №1. - Toshkent: Universitet, 1999.
15. Ziyoev H. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning ta-rixi (miloddan oldingi asrlardan to 1991 yil 31 avgustgacha). -Toshkent: SHarq, 2001. - 448 b.
16. Komilov O. Turkiston maorif tizimidagi o'zgarishlar. – Toshkent, 2010.
17. Munavvar Qori Abdurashidxonov. Xotiralarimdan (Jadid-chilik tarixidan lavhalar). - Toshkent: SHarq, 2001.
18. Sulaymonov A. Oliy ta'lim tarixiga doir lavhalar // Xalq ta'limi; - Toshkent, 2005. №2.
19. Tarix shohidligi va saboqlari: chorizm va sovet mustamla-kachiligi davrida O'zbekiston milliy boyliklarining o'zlashtirili-shi / Loyiha rahbari, mas'ul muharrir: D.A.Alimova. - Toshkent: SHarq, 2001.
20. O'zbekiston tarixi / R.Murtazayeva umumiy tahriri ostida. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.
21. O'zbekistonda maorif va madaniyat masalalari (o'zbek ti-lida). - Toshkent: O'zdavnashr, 1926.